



UZLUKSIZ KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH



Uslubiy qo‘llanma



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNI MALAKASINI OSHIRISH
HUDUDiy MARKAZI

N.SHODIYEV, M.RAXIMQULOVA, D.ATAMURODOV

UZLUKSIZ KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

(Uslubiy qo'llanma)

“QAMAR MEDIA” NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2022

UO'K 373.21(072)

KBK 74.100(50')

SH 74

N.Shodiyev, M.Raximqulova, D.Atamurodov Uzlusiz kasb-hunarga yo'naltirish. Uslubiy qo'llanma. –Toshkent: Qamar media nashriyoti, 2022-yil. 68 bet.

Ushbu uslubiy qo'llanmada maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarni hamda boshlang'ich ta'lim Matematika (3-sinf), Tabiatshunoslik (3-4-sinflar), Ona tili (4-sinf) predmetlarini o'rganish jarayonida ta'lim oluvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish imkoniyatlari ishlab chiqilgan.

Shuningdek, unda boshlang'ich maktab ta'limida o'quvchilarni kasb-hunarlar bilan tanishtirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritilgan.

Uslubiy qo'llanma malaka oshirish tinglovchilari hamda magistrnlarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

p.f.n., **B.Q.Doniyev**

p.f.n., **M.A.Fayziyev**

Mas'ul muharrir:

P.f. bo'yicha falsafa (PhD) doktori,
dotsent **A.A.Ibragimov**

Ushbu uslubiy qo'llanma Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi Ilmiy Kengashining 2022-yil 11- may 2-sonli qaroriga binoan nashrga tavsiya etilgan

ISBN 978-9943-8048-3-8

© N.Shodiyev, M.Raximqulova, D.Atamurodov

© "Qamar media" nashriyoti

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis hujjatlarida, Prezident asarlarida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo'yicha uzoq yillarga mo'ljallangan dasturda uzluksiz kasbga yo'naltirish masalasi o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasining yuqorida ko'rsatilga me'yoriy-huquqiy hujjatlarida ta'lim muassasalari, pedagogika fani va amaliyoti oldida rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish¹ vazifasi ijtimoiy buyurtma sifatida yuklatilgan.

Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilingandan keyin o'tgan davrda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotimizning barcha sohalarida tub islohatlar amalga oshirilib, respublikamiz rivojlangan mamlakatlar orasida tobora keng o'rin egallab bormoqda.

Raqobat muhitida iqtisodiyotga xorijiy investisiyalarni to'g'ridan-to'g'ri joriy etish, zamonaviy texnika va innovatsion texnologiyalarga asoslangan qo'shma korxonalar faoliyatini tashkil etish orqali jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lish esa kasbiy tayyorgarligi xalqaro standartlarga javob beradigan kasbiy ta'lim muassasalarini tashkil etishni taqozo etadi.

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi zamonaviy bosqichi talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"²gi Farmonni qabul qildi.

Mazkur Farmon mamlakatimizda professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish - boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy etish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar

tayyorlash hamda bu jarayonga ish beruvchilarni jalb qilishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Joriy o‘quv yilidan boshlab mutlaqo yangi professional ta‘lim tizimi yo‘lga qo‘yilib, 348 ta kasb-hunar maktabi, 147 ta kollej va 143 ta texnikum tashkil etiladi”³, degan edi.

O‘z-o‘zidan ravshanki, professional ta‘limning ushbu yangi tizimi, birinchi galda maktab pedagogik jamoasi oldiga har bir o‘quvchini o‘z qiziqish, qobiliyati va ishlab chiqarish ehtiyojiga muvofiq ravishda kasb tanlashi hamda bu ishga oila, mahalla va keng jamoatchilikni faol ishtirok etishini ko‘zda tutadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va boshlang‘ich ta‘lim maktablarida bolalarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha pedagogik jamoalar faoliyatining samarasi ko‘p jihatdan o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish borasida bog‘cha va maktabda tashkiliy-pedagogik faoliyatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga bog‘cha hamda maktabda bolalarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha murabbiylar faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishga bolalarni kasblarga yo‘llash bo‘yicha oila, mahalla, uzluksiz ta‘lim tizimi, keng jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko‘rinadiki, maktabgacha ta‘lim muassasalari hamda boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilari bilan kasbga yo‘naltirish bo‘yicha olib boriladigan tarbiyaviy ishning mazmun-mohiyati ular ongiga biror kasbni to‘g‘ri tanlagan, uni mukammal egallagan kishilargina kelajakda mehnat huzur-halovat bag‘ishini, baxt keltirishini singdirishga qaratishni taqoza etadi.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. –T. 2020

2. Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2019-yil 6-sentabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 25-yanvar.

1 §. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini kasb-hunarlar ("Kasblar alifbosi") bilan tanishtirish

Xalq ta'lim vazirligining 2007-yil 5-fevraldagi 35-sonli buyrug'iga binoan ishlab chiqilgan «O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlari dasturi» ning («Kasblar alifbosi bilan tanishish, erta kasb-hunarga yo'naltirish»), deb nomlangan birinchi bosqichida maktabgacha ta'lim muassasalarida 5-6 yoshdan boshlab kasb-hunarga yo'naltirish ishlari tashkil qilinishi va amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Mazkur me'yoriy xujjatda MTM tarbiyalanuvchilarini kasb – hunarga yo'naltirishning maqsad, vazifalari hamda uning uslubi va vositalari bayon qilingan. Unga ko'ra erta kasb – hunarga yo'naltirishning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolalarda insonlar turli kasb egalari haqidagi biim va tasavvurlarning rivojlanishi va shakllanishi;
- bolalarda turli hamda keng tarqalgan kasblarga qiziqishni rivojlantirish va unga ijobiy munosabatni shakllantirish;
- kattalar mehnati, mehnat natijasi, mehnat qurollari haqidagi birlamchi tasavvurlarini mustahkamlash uchun sharoit yaratish;
- MTM tarbiyalanuvchilarida mehnat ko'nikma va malakalarini oilaviy sharoitda tarbiyalash yuzasidan ota – onalarga tavsiyalar berish.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining uslubi va vositalari:

- kasb-hunarga yo'naltirish haqida hikoyalar, suhbat, she'r, topishmoqlar, kitoblar (katta bog'cha yosh davriga xos bo'lgan bolalarga tushunarli tilda iqtisodiy ma'lumot berish);
- kasbga yo'naltirish mavzusida rasm (kartochka), plakatlar, slaydlar, videofilm namoyish qilish (katta yosh davriga xos bo'lgan ko'rgazmali – obrazli kasbiy ma'lumot);

- rivojlantiruvchi va o'rgatuvchi kasbiy o'yinlar (katta yosh davrga xos bo'lgan kasbiy ma'lumot o'yin, o'quv va kommunikativ faoliyatlari bilan birgalikda);

- o'quv darslari, «Mehnat darsi», konkurslar (maktabgacha yosh davrida mehnat va ijodiy, o'quv-o'yin faoliyatining jarayonida kasbiy ma'lumot);

- ota-onalar uchun suxbat va topshiriqlar (bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha tavsiyalari, kasbiy maslahat, kasbiy ma'rifat, ularning bilimlarini mustahkamlash va rivojlantirish, oddiy o'yin, o'quv, mehnat malakalari va ko'nikmalarini oilaviy sharoitda tarbiyalash).

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida" 2018-yil 1-mh-sonli asosida ishlab chiqilgan «Ilk qadam» dasturi variantini sinchkovlik bilan tahlil qilish bizga MTT da nafaqat «Katta yosh davri (5-6 yosh)»dan, balki «Kichik yosh davri (3-4 yosh)», «O'rta yosh davri (4-5 yosh)»dan boshlab bolalarda kasb-hunarlar, ularning mehnat natijalari, mehnat qurollariga oid tasavvur va tushunchalarni shakllantirish bo'yicha imkoniyatlar mavjudligi namoyon qilindi. Jumladan, «Ilk qadam» tayanch dasturida MTT da ta'lim-tarbiya yo'nalishlari, ya'ni tarbiyalanuvchilarni jismoniy rivojlantirish, bolalarning nutqi va tafakkurini o'stirish hamda ularning ma'naviy kamolotini ta'minlash tarkibida beriladigan ta'lim-tarbiya mazmunida odamlarning mehnati, kasbiy va iqtisodiy faoliyatlari mujassam bo'lib, ularga tayangan holda bolalarga turli kasb-hunarlar haqida ma'lumot berish mumkin.

Bog'cha bolalarini «Kasblar alifbosi» bilan tanishtirish bo'yicha (MTT) tarbiyachi mutaxassislarining mazkur soha bo'yicha faoliyatlarni o'rganish natijalari ularning aksariyat ko'pchiligi hozirgi kun talablariga javob bermasligini ko'rsatmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri tarbiyachilarning ko'pchiligi oliy o'quv yurtlari va kasb – hunar kollejlarida bog'cha bolalarini xalq milliy

hunarmandchiligi, oilaviy biznes bilan shug'ullanayotgan kishilar va tadbirkorlar kasblari haqida yo'naltirilgan kasb yangicha axborot berishning mazmuni, shakli, metod va vositalariga yetarli darajada e'tibor berilmaganligidadir. Ayni paytda «Bolajon» tayanch dasturi asosida kichik (3-4 yosh), o'rta (4-5 yosh) va katta (5-6 yosh) guruh uchun mo'ljallangan mavzu va savollarni mazmuni ularda «Kasblar alifbosi» qay darajada singdirilganligi nuqtai nazaridan o'rganish, masalan kichik guruh bolalari asosan MTT xodimlarining kasblari (oshpaz, enaga, qorovul va boshqalar) va ularning ishlari hamda kattalar mehnati, transport vositalari haqida ta'lim berish chegaralangan, xolos. Shu vaqtning o'zida kichik va o'rta guruhlarga mo'ljallangan mashg'ulotlar mavzu va savollari mazmunini chuqur tahlil qilish bog'cha bolalariga muntazam ravishda kasblar alifbosi to'g'risida bilim berish bo'yicha keng potensial imkoniyatlar mavjudligidan dalolat bermoqda.

Shu munosabat bilan yuqorida ko'rsatilgan guruhlar o'rganishi ko'zda tutilgan mavzu va savollar mazmuniga «Kasblar alifbosi»ni singdirib o'rgatish bilan bog'liq masalalarini qarashiga o'tamiz.

Kichik guruh (3-4) ning dasturida ko'zda tutilgan «Nutq tovushi madaniyatini shakllantirish» mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish jarayonida tarbiyachi pedagog unli (e, i, a, o, u, o') tovushni to'g'ri talaffuz etishni mashq qildirishda, mazkur unlilar bilan bir vaqtda bog'cha tarbiyalanuvchilari 6 ta unli tovush bilan atalgan kasblarni ham talaffuz qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Ya'ni:

i - iqtisodchi, issiqxona operatori,

a - agranom, akrobat, aravasozi, armaturachi, arxeolog, asalarichi, asbobsoz, aptekachi.

o - objivoz, ovchi, ofitsiant, oxak so'zdiruvchi.

o' - o'ymakor, o'lkashunos, o'quvchi, o'qchi.

u - uzumchi usta, uchuvchi.

e - ekanomist, ekskvatorchi

Xuddi shuningdek, undosh (m, p, b, r, t, d, k, g, f, v) larni to'g'ri talaffuz etishni mashq qildirish barobarida tarbiyachi mazkur undalmalar bilan ataladigan 10 ta undoshli kasblarni ham mashq qildirishda bolalarga ko'maklashsa, ularning kasblar haqidagi tasavvurlari, so'z boyliklari kengayadi. Ya'ni:

m- maxsido'z, miskar, matorchi, muqovachi.

n- naqqosh, novvoy.

p- payvandchi, pillakor, parranda boqar, paketchi, polizchi, po'stinchi, paxta tozalovchi, plastmassa qo'yuvchi.

t- tegirmonchi, temirchi, tikuvchi, tunikasozi, to'quvchi.

d- darbozi, dehqon, do'ppido'z, duradgor, dengizchi.

k- kassir, kombaynchi, ko'chatchi.

g- ganchkor, gulchi, gilamchi, gazmolchi.

f- fazogir, farrosh, fotograf, futbolchi.

Xuddi shuningdek, o'rta guruh (4-5) ning dasturida ko'rsatilgan «Tovush madaniyatini tarbiyalash» mashg'ulotlarida bolalarni h, k, o', e, r, l, s kabi tovushlarni aniq, to'g'ri talaffuz etishlarini mustahkamlash barobarida ular bilan ataladigan kasblarning nomlarini ham tarbiyachi tomonidan talaffuz qildirilishi asqotadi. Ya'ni:

h- hisobchi, harbiy, haydovchi, hamshira.

k- kassir, kombaynchi, ko'chatchi, kimyogar, kinorejissyor, konduktor, koshinkor, kinooperator, kashtado'z, kartograf.

o'- o'ymakor, o'lkashunos, o'qituvchi.

e- ekonomist, ekskavatorchi, elektr payvandchi, enaga, etikdo'z.

r- rassom, razvedkachi, revizor, rasmchi, registator, rentgenolog, rixtagor, romchi.

l- lavlagichi, laparchi, lattafurush.

s- sabzavotchi savdogar, sandiqsoz, sartarosh, silliqlovchi, suratchi, soatsoz, suvchi, sinovchi, sanitar, sovunchi, skripkachi.

Bu yerda tavsiya etilgan kasblardan tarbiyachi o'rta guruh (4-5) bolalarining imkoniyatlariga mos bo'lganlarini tanlab mashq

qildirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'rganishlar natijalari kichik (3-4), o'rta (4-5) va katta (5-6) yoshli guruhlarga mo'ljallangan «Elementar matematik bilim va ko'nikmalar»ni tarbiyalanuvchilarga o'rgatish bilan bog'liq mashg'ulotlarga geometrik shakllar bilan bog'liq turli – tuman kasblar haqida bolalarga boy ma'lumotlar bilan tanishtirishi uchun keng imkoniyatlar mavjudligidan dalolat bermoqda. Jumladan, geometric shakl «Aylana» asosi va ustki qismlari aylanadan ibotat uy – ro'zg'or buyumlari – choynak, kosa, piyola, tovoq, tuvak, tarelka, likopchani kimlar tayyorlaydilar? Javob: chinnisoz, kosagar, kulol.

Mazkur buyumlardan o'z mehnatlarida qaysi kasblar egalari foydalanadilar?

Javob: oshpaz, ofitsiantlar hamda mehnatlariga maosh olmaydigan Onajon va opajonlarimiz.

Bolajonlar uylaringizdagi «Neksiya», «Jiguli» kabi avtomabillar, traktorlar va ularga tirkalgan protseplar g'ildiraklari ham, aylana, ular aylana shaklida harakat qiladilar. Ularni qaysi kasb egalari boshqaradilar?

Javob: avtomobil haydovchisi, traktorchi.

Bolajonlar! Ushbu xalq maqolida «Ot aylanib qozig'ini topadi» degan maqolda qaysi kasb egasi haqida so'z borayapti?

Javob: chavandoz

Asosi oval, yumaloq, yarim yumaloqdan qilib tayyorlangan egovlardan, simlardan qaysi kasb egalari foydalanadilar?

Javob: Slesarlar.

Yo'l belgilari: buyuruvchi va ko'rsatuvchi belgilar svetofor chiroqlari aylana shaklida tayyorlangan. Ularni muntazam ishlab turishiga mas'ul kimlar?

Javob: Yo'l patrul xizmati (YPX) xodimlari.

«To'rtburchak» yo'l belgilari tablichkalar ham to'rtburchak qilib tayyorlanadi. Sandiq, eshik, deraza, stol, shkaf to'rtburchak shaklida yasaladi. Ularni kimlar yasaydi?

Javob: sandiqsoz, duradgor, shishado'z.

Do'ppining ham to'rt tomoni bor. Uni «do'ppido'z» opalarimiz, onalarimiz tayyorlaydilar va hokazo.

O'tkazilgan tahlillarimiz yuqorida ko'rsatilgan guruhlar uchun mo'ljallangan dasturlarining «Kattalar mehnati», «Transport vositalari», «Buyumlar haqida», «Ustki kiyimlar», «O'simliklar dunyosi», «Hayvonot dunyosi» mavzu va savollari bo'yicha mashg'ulotlarida ham bog'cha tarbiyalanuvchilarini «Kasblar alifbosi» bilan tanishtirish imkoniyatlari mavjudligidan dalolat bermoqda. Shuningdek, hunarmandchilik ustaxonalari, korxonalar, tabiatga uyushtiriladigan ekskursiyalarning mazkur sohadagi imkoniyatlarni yoddan chiqarmaslik lozim.

Katta guruh (5-6yosh)ning dasturida «Nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik» bo'limining «Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish» da ona-tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etish malakalarini mustahkamlash. Fonetik idrokni o'stirishda davom etish. Bolalarga s-z, p-f, t-d, p-b, l-r, u-o', x-h, k-g, tovushlarini to'g'ri talaffuz etish va ularni farqlashni o'rgatish ta'kidlangan.

Maskur tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish bilan birga ular bilan boshlanadigan kasblarni ham talaffuz qilish asqotadi.

S-z: sabzavotchisi, sartaosh, soatsoz, suvchi, sandiqchi, selesir, sotuvchi, suvoqchi – zargar, zardo'z;

P-f: payvandchi, parashotchi, paxtakor, paxta tozlovchi, parrandachi operator, pillakashlik, preslovchi, po'lat quyuvchi – fudbolchi, fotograf;

T-d: tikuvchi, tennischi, tralebuschi, tegirmonchi, traktorchi – dehqon, dorixonachi, do'ppido'z, dorboz, dozalash operatorchisi;

P-b: paxtakor, pilla kalavalovchi, po'lat quyuvchi, po'stindo'z, pichoqchi – baxmalchi, buyurochi, bo'yoqchi, bo'zchi, beton qorishtiruvchi;

L-r: loykash, lak sintez qilish operatorchisi, liderchi – rassom, (chinni idishlarga bezak soluvchi);

U-o': uchuvchi, uzumchi usta – o'qituvchi, o'ymakor, o'rmonchi;

X-h: xokkeychi, xumdonchi – hammomchi, huquqshunos, harbiy, hisobchi;

K-g: kosib, kassir, kutubxonachi, keramika materiallarini pishiruvchi – gazlama kesuvchi, gazlamalarni qayta tiklovchi, gilamchi, gips pishiruvchi.

Shunday qilib, yuqorida bayon qilingan taklif va tavsiyalarimiz MTM tarbiyachi pedagoglariga «Kasblar alifbosi» oldida turgan maqsad va vazifalarni uslubiy jihatdan bajarishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir (1-jadval).

1- jadval.

Turli bosqichdagi guruhlar	Mazmuni jihatidan dastur tarkibi	Kasblar
Kichik yosh (3-4)	1.Jismoniy rivojlanish: asosiy harakatlarga o'rgatish, umumrivojlantiruvchi mashqlar, chiniqtirish va sog'lomlashtirish, harakatli o'yinlar	Mahalla inspektori, militsioner, chegarachi, uchuvchi, harbiy, xavfsizlik xodimlari, futbolchi, kurashchi, bokschi, tennischi
	2.Lug'at ish: lug'atni faollashtirish - buyumlarning nomini anglatadigan otlar: kiyim-ustki kiyim Bosh kiyim Oyoq kiyim Idish-tovoq Mebel -O'simliklar: daraxt, olma, anor, nok, olcha, limon	Kiyim tikuvchi, bichuvchi, do'ppido'z, telpakdo'z, maxsido'z, etikdo'z, kosib, chinnisoz, kulol, mebelchi, duradgor, O'rmonchi, bog'bon, issiqxona operatori,

	-Uy hayvonlari: xo'roz, tovuq, ot, sigir	parrandaboqar, operator, chavandoz, molboqar
	3.Qurish-yasash: qog'ozdan buklash yo'li orqali sodda shakllar yasash	Quruvchi, suvoqchi-koshinkor, g'isht teruvchi, kranchi, bo'yoqchi
	4.Ta'limiy o'yin va mashqlar: tez yurar poyezd, do'kon	Konduktor, teplovoz mashinisti, sotuvchi
	5.Kattalar mehnati: Ona vatan va atrof-olam Bog'cha xodimlari, Transport vositalari Svetafor Buyumlar: uy-ro'zg'or buyumlari-shkaf, xontaxta, Oshxona idishlari- kosa, tovoq, choynak, payola Ustki kiyimlar-ko'ylak, nimcha, palto, to'n Oyoq kiyimlar Bosh kiyimlar	Enaga, oshpaz, qorovul, tibbiyot hamshira, haydovchi, uchuvchi, davlat avtoinspektori, duradgor, chinnisoz, oshpaz Tikuvchi, bichuvchi, bolalar ustki kiyim tikuvchisi Etikdo'z, maxsido'z, kosib Do'ppido'z, telpakdo'z
	6.O'simliklar dunyosi: Sabzi, piyoz, karam, pomidor, Olma, o'rik, olcha, gilos, uzum Xona gullari-fikus, geron	Sabzavotchi usta, bog'bon, uzumchi (tokchi) usta, gulchi, cho'pon, molboqar, zoopark xodimlari, baliqchi

	Hayvonot dunyosi-qo'y, sigir, bo'ri, tulki, ayiq, quyon, baliqlar Qurish – yasash	Quruvchi, g'isht teruvchi, suvoqchi, koshinkor
--	--	--

22

2-jadval

Turli bosqichdagi guruhlar	Mazmuni jihatidan dastur tarkibi	Kasblar
O'rta guruh (4-5 yosh)	1.Jismoniy rivojlanish: asosiy harakat mashqlari, umumrivojlantiruvchi mashqlar, chiniqtirish va sog'lomlashtirish	Murabbiy, sog'lom turmush tarsi tashkilotchisi
	2.Lug'at ish: lug'atni faollashtirish. Yog'ochdan tayyorlangan eshik, rom, temirdan yasalgan darvoza, chinnidan yasalgan idish-tovoq, plastmassadan quyilgan idish Kasblarni bildiruvchi nomlar: turkum tushunchalarni anglatuvchi so'zlar: sabzavot (bodring, piyoz, karam) Meva (olma, o'rik, gilos, yong'oq) Mebel (stol, stul, shikaf, divan)	Duradgor, yog'ochsoz, plastmassali buyumlarni presslovchi, quruvchi, haydovchi, sabzavotchi usta, bog'bon, mebelchi, etikdo'z, poyafzalchi,

	<p>Poyafzal (etik, tufli, shippak) Ikki soʻzdan gap tuzish.</p>	
	<p>3.Kattalar mehnati. Milliy hunarmandchilik mehnati Transport vositalari (avtobus, tramvay, trolleybus, poyezd, samolyot, yuk mashinalari) Ustki kiyimlar (atlas, koʻylak, yaktak, shippak) Bosh kiyimlari (roʻmol, telpak, doʻppi, qalpoq)</p>	<p>Shifokor davola-yapti, uchuvchi uchyapti, tramvaychi haydayapti, poyezd mashinasi, yuk ortuvchi, oʻzi yurar mashina haydovchisi, Naqqosh, miskar, xumdonchi, duradgor, haydovchi, poyezd mashinisti, uchuvchi, tikuvchi, bichuvchi, telpakdoʻz, doʻppidoʻz</p>
	<p>4.Oʻsimliklar dunyosi: baqlajon, sholgʻom, karam, turp Anor, anjir, behi, oʻrik Hayvonot dunyosi: uy hayvonlari, qushlar Sigir, echki, qoʻylar yaylovlarda oʻtlashi</p>	<p>Sabzavotchi usta, Usta bogʻbon Molboqar, choʻpon, mevachi sabzavotchi usta, yaylov xoʻjaligi xodimi, II klass chorvachilik masteri</p>
	<p>5. «Ajoyib sandiqchi» mashgʻuloti, Ertaklar olamiga sayohat mashgʻuloti: -Oʻzbek xalqining amaliy sanʼati bilan tanishtirish («Dasturxon uchun milliy naqshlar» mavzusida rasm chizish. -Alisher Navoiy haykali</p>	<p>chizmakash, haykaltarosh, Sandiqsoz, naqqosh, xumdon, misgar, doʻppidoʻz,</p>

	<p>-Xalq amaliy san'ati na'munalari-lagan, xumdon, payola, patnis, nimcha, do'ppi</p>	
	<p>6.Gul ko'chatlarni maydonchaga o'tkazish mashg'uloti. Bolalarni atrofdagi hayotga va kattalar mehnatiga nisbatan qiziqishlarini oshirish. Shu mehnatni bajaradigan insonga samimiy xurmat hissini uyg'otish. Mehnat quollaridan qanday foydalanish kerakligi, ularning qay tartibda ishlatilishi haqida tushuncha berish va birgalikda ko'chat ekish mehnat qilishga o'rgatish.</p>	<p>Bog'bon, ko'kalamlashtiruvchi, gulchi, nihol yetishtiruvchi mutaxassis, issiqxona operatori, ko'chatchi labarant,</p>
	<p>7. «O'zbekiston-jonajon diyori. Muborak men tug'ilib o'sgan yurt» mashg'uloti -Qo'shma korxonalar ishga tushirildi. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan Damas, Tiko, Neksiya mashinalari -Gazni qayta ishlash zavodi O'zbekistonimizni gaz bilan ta'minlaydi.</p>	<p>Haydovchi, Gazchi-slesar, paxtakor Tokor, mexanik yig'uv ishlari slesari, elektrgaz payvandchi, rezalovchi, avtomobillarning elektr asboblari remonti bo'yicha slesar elektrik</p>

	<p>-O'zbekiston o'zining paxtasi bilan mashhur, paxtani turli mamlakatlarga eksport qiladi</p>	<p>Paxtakor, paxta tozalovchi (jipslashtiruvchi)</p>
	<p>8. «O'z egangni top» o'yini mashg'uloti Bolalarning har xil kasblar va ularga tegishli asboblarning haqidagi bilimlarini aniqlash va mustahkamlash. Paxta chigitidan olinadigan maxsulot (sovun, yog') lar, ipdan jempfer, ko'ylak, paypoq tikiladi.</p>	<p>Paxtakor, suvchi, sovunchi, do'kchi, nonvoy, tegirmonchi G'isht teruvchi, duradgor,</p>
	<p>9. Matematika va ishlash bo'yicha integral mashg'ulot. Amir Temur Samarqandda va Shahrisabz shaharlarida baland-baland inshootlar, madrasa, maschitlar qurdirgan, bog'-rog'lar yaratgan.</p> <p>Amir Temur o'z askarlari bilan yurtimizni dushmanlardan ozod qilgan. 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni</p>	<p>Navkar, zobit, askarboshi, sarkarda askar, serjant, zobit, harbiylar, me'mor, quruvchi, g'isht teruvchi</p>

	<p>10.O'zbek xalq o'yinlari asosida xalq og'zaki ijodi. Bahor faslida paxtakorlar, bog'bonlarning ishi ko'payadi.</p>	<p>O'yinchi kasbi, laparchi, darboz kasbi, Paxtakor, bog'bon</p>
--	--	--

3-jadval

Turli bosqichdagi guruhlar	Mazmuni jihatidan dastur tarkibi	Kasblar
Katta yosh (5-6)	<p>1.Lug'atni boyitish va faollashtirish Bolalarni o'zlari yashayotgan shahar va ko'cha bilan tanishtirish</p>	<p>So'zangaron (samarqand kulol), temirchi (chilangar), kukcha (toshkent), zargar, charxchi (samarqand)</p>
	<p>2.Kattalar mehnati: bo'yoqchi va duradgor kasbi, ularning hunari haqida bolalarga bilim berish. Odamlarning o'z mehnatiga nisbatan munosabatini ifodalovchi (betartib, ehtiyotkor, tadbirkor, saranjom-sarishta) va shu kabi so'zlarni lug'atga kiritish. Qurilish va qishloq xo'jaligida foydalanadigan transport turlari haqida</p>	<p>Bo'yoqchi, duradgor, Traktorchi mashinist, slesar sozlovchi, meliorator, bog'bon, kombaynchi, avtomabilli kranlar mashinisti, minorali o'ziyurar va statsionar kranlar mashinisti,</p>

	<p>bolalarga tushuncha berish. Bolalarga buyumlar haqida, ularni qanday materiallardan yasalganligi haqida tushuncha berish (yelim, temir, sopol) Gazlama va uning turlari bilan tanishtirish (baxmal, shoyi, chit kabi so'zlar) Maqollar va tez aytishlar (kasb-hunar haqida maqollarni topish) Bog'imizda ishlash uchun bizga nimalar kerak? (bog'bonning mehnat qurollari-ketmoncha, kurakcha, teshacha)</p>	<p>Bog'bon, nihol o'tqazish, nihollar atrofini yumshatish, uzumchi usta Sotuvchi, nazoratchi kasser Bog'bon, mevachi-polizchi Yashil xo'jalik ishchisi (xodimi), nihol, o'simliklarga shakl beruvchi</p>
	<p>3. «Maysazorga sayohat» mashg'uloti «Mehrjon» bayramini nishonlash mashg'uloti</p>	
	<p>4.Savdo do'koni, savdo qilish, xarid qilish Kuzgi ne'matlar haqida suhbat.</p>	
	<p>5.Tevarak atrof bilan tanishtirish «O'zbekiston-mening Vatanim» mavzusida suhbat</p>	

	<p>«Oltin kuz» mavzusida bog'cha bo'ylab sayr</p> <p>«Ona shahrim Toshkentim» mavzusida suhbat</p> <p>«Samarqand – qadimiy shahar»</p> <p>«Buhoro shahri»</p> <p>«Hiva shahri»</p> <p>Buyuk ipak yo'li haqida tushuncha berish</p>	
	<p>6.An'anaviy bayramlar:</p> <p>Mehrjon – hosil bayrami haqida suhbat,</p> <p>Paxta bayrami – hosil bayrami</p> <p>Navro'z bayrami haqida suhbat</p> <p>Gul va qushlar bayrami haqida suhbat</p> <p>Qovun va uzum sayli haqida suhbat</p>	<p>Bog'bon, polizchi, dehqon, meva va rezavorlarni qayta ishlash bo'yicha mevachi, gulchi, polizchi, uzumchi usta</p> <p>Rassom, fotograf, ganchkor</p>
	<p>7.Mashhur sarkardalar va xalq ijodi</p> <p>Buyuk sarkarda bobomiz Amir Temurni surati orqali tanishtirish,</p> <p>O'zbek xalqining milliy ganch o'ymakorlik san'ati bilan tanishtirish,</p>	<p>Naqqosh</p> <p>Kulol</p> <p>Dehqon, farrosh, sotuvchi, nazoratchi</p>

	<p>Buyuk sarkarda Boburni sur'ati bilan tanishtirish, O'zbek xalqining milliy naqqoshlik san'ati bilan tanishtirish, O'zbek milliy kulolchilik san'atibilan tanishtirish</p>	<p>kassir, duradgor, yog'ochsoz, chorvador, parrandaboqar, II-klass chorvachilik mexanizatori, Pillakor, pillakash, pilla boquvchi,</p>
	<p>8.Kattalar mehnati: -dehqon mehnati bilan tanishtirish, -farrosh mehnati bilan tanishtirish, -oziq-ovqat do'koniga sayohat, -duradgor mehnati bilan tanishtirish, -chorvador mehnati bilan tanishtirish, -pillakorlar mehnati bilan tanishtirish, -bog'bon mehnati bilan tanishtirish, -yangi qurilayotgan qurilishlar binosiga sayohat, -nonvoyxonaga sayohat.</p>	<p>Novvoy, Bog'bon, meva va rezavorlarni qayta ishlash bo'yicha usta, g'isht teruvchi, suvoqchi, koshinkor, novvoy, avtomobil shafyori, teplovoz mashinisti, uchuvchi, konduktor, motorchi-boshqaruvchi (daryo floti bo'yicha), avtomobillar remonti bo'yicha slesor, avtomobil shafyori, Aloqa opperatori, xat tashuvchi (pochtalyon), aloqa liniyalar montyori, Avtomobil shafyori, trolleybus boshqaruvchisi, Uchuvchi, sloardessa (samolyot konduktori)</p>

9.Transport va aloqa vositalari:

Transport turlari bilan tanishtirish (yo'l transporti, suv transporti va havo transporti),
Avtokorxonaga sayohat
Yo'lovchi va yuk tashuvchi transport xodimlari mehnati bilan tanishtirish,
Aloqa vositasi bo'limiga sayohat,
Aloqa xodimlari mehnati haqida suhbat,
Avtobus va trolleybus transporti hatakatlarini kuzatish,
Havo transporti haqida suhbat.

2-§. Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarni matematika, tabiatshunoslik, ona tili fanlariga o'rgatish orqali boshlang'ich kasb-hunarlariga yo'naltirish

2.1. 3-sinf matematika ta'limida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish imkoniyatlari.

Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish bo'yicha to'rt bosqichli dasturning ikkinchi bosqichida kichik maktab 6-9 (7-10) yoshidan boshlab o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirishga alohida e'tibor berilib, unda ularni birinchi galda ota-onalarning, boshqa oila a'zolarining, qavmu-qarindoshlarning hamda mazkur hududda mehnat qilayotgan insonlarning kasblari bilan tanishtirish orqali ularda turli kasblarga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish ko'zda tutilgan.

Biroq, o'tkazilgan tahlillarni ko'rsatishicha boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga boshlang'ich yo'naltirish bo'yicha ushbu muhim vazifani faqat «Kasb-hunarga yo'naltirish» darslari va «Texnologiya ta'limi» mashg'ulotlarida yetarlicha hal qilib bo'lmaydi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda kasblarga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirishda boshlang'ich ta'lim o'quv rejasidagi barcha fanlarning mazkur sohadagi imkoniyatlaridan foydalanish kutilgan natijaga erishishda asqotadi.

Shu bois, I-IV sinflar «Ona tili», «O'qish», «Jismoniy tarbiya», «Matematika» va h.k. fanlari namunaviy o'quv dastur va darsliklarining mazkur sohadagi imkoniyatlarini namoyon qilishga ehtiyoj katta.

Matematika fanining o'quv dastur va darsliklarida bayon qilingan ta'lim mazmunini bolalarning kichik maktab yoshi davrida turli kasblar haqida ma'lumotlarni qabul qila olish darajasiga mos ravishda tahlil qilindi.

Jumladan, tarkibida 1120 ta masalani o'z ichiga olgan 3-sinf matematika o'quv darsligi mazmunida nomlari tilga olingan

bogʻbon, dehqon, yozuvchi, muqovachi, operator, rassom, sotuvchi, sportchi, sut sotuvchi, tikuvchi, chavandoz, shifokor, shofyor, oʻqituvchi kabi kasblar soni 20 ga yaqin boʻlib, ularning ayrimlari masalalar matni (mazmuni)da koʻp marta takrorlangan. Ular jumlasiga, masalalar mazmunida 4 marta takrorlangan. «Toʻquvchi», «Sotuvchi», «Duradgor», 3 marta takrorlangan «Sportchi» kasbini kiritish mumkin.

Oʻtkazilgan tahlillarimiz 4-sinf matematika darsligida ham nomlari tilga olingan kasblarni miqdori yuqorida koʻrsatilgan darslikda bayon qilinganlarga yaqinligini koʻrsatmoqda. Mazkur holat, shubhasiz, kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarni soʻz (loʻgʻat) boyligini oshirishga, kasblarni qisqa muddatli eslab qolishlarini uzoq muddatli xotiraga oʻtkazishga yordam berishini alohida taʼkidlash joiz.

Ayni paytda ushbu darsliklar mazmunida chegaralangan miqdordagi kasblarning nomi tilgan olinganligi oʻquvchilarni taʼlimning kelgusi bosqichlarida erkin kasb tanlashlariga maʼlum darajada toʻsqinlik qilishi mumkin. Shu bois kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarni «Kasblar olami» bilan tanishtirish koʻlamini yanada kengaytirish maqsadida I-IV sinflarda matematika fanlari oʻquv darsliklarida bayon qilingan taʼlim mazmunining potensial imkoniyatlaridan foydalanish asqotadi. Shu bois I-IV sinflar matematika darsliklarida bayon qilingan masalalar mazmunini u yoki bu kasbning ish joyi, mehnat qurollari, mehnat jarayoni, tayyorlagan mahsuloti va h.k. boʻyicha sinchkovlik bilan oʻrganib, tahlil qilish joiz.

Quyida 3-sinf matematika darsligi mazmunida turli kasblarning ish joylarini ifodalovchi masalalardan ayrim naʼmunalar keltiramiz. Jumladan, 3-sinf darsligida masalalar mazmunida 30 dan ortiq ish joylarining nomlari bayon qilingan boʻlib, ular orasida tikuvchilik fabrikasi, ustaxonasi, sexi nomlari bilan 16 marta; dukon nomi bilan 15 marta masala matni; oshxona nomi bilan 6 marta; kassa nomi bilan 2 marta; avtomobil zavodi nomi bilan 1 marta;

aeroport nomi bilan 1046-masala matni; parrandachilik fermasi nomi bilan 1169-masala matni; dorixona nomi bilan 863-masala matni; hayvonot bog'i nomi bilan 521-masala matni keltirilgan.

Ma'lumki, mamlakatimiz xalq xo'jaligida band bo'lgan har bir ishchi, xizmatchi ma'lum ish joyida o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajaradi.

Shu nuqtai nazardan mazkur darslikdagi masalalarda ko'p marta takrorlangan, masalan tukuvchilik fabrikasi, ustaxonasi, sexi bilan bog'liq masalalarni yechish jarayonida o'qituvchi tikuvchilik fabrikasi, yoki ustaxonasi, yoki sexi qaysi kasb egasining ish joyi, uning mehnat mazmuni, tayyorlangan mahsulotlari kabi savollarni qo'yishdan, unga to'g'ri «tikuvchi» kasbi degan javob olmaguncha davom ettirishdan to'xtamasligi lozim. Dorixona nomi bilan bog'liq 863-masalani yechishda o'qituvchi bolalarni bu maskan aptekachi, dorishunosning ish joyi deb aytishiga qadar dorixona faoliyati bilan bog'liq savollarni qo'yishdan to'xtamasligi lozim.

Darslikning qishloq maktablari o'quvchilariga juda yaxshi tanish bo'lgan «O'tloqda hammasi bo'lib 80 ta qo'y va echki boqilmoqda. Qo'ylar 46 ta. Echkilar soni qancha?» degan darslikning 120-masalani yechish jarayonida o'qituvchi o'tloqda qo'y va echkilarni qaysi kasb egasi boqadi degan savol bilan murojaat qilishi, bolalarni «Cho'pon» boqadi degan javobini aytishiga da'vat etishi asqotadi.

Mazmunida ish joyi bayon qilingan masalalarni o'rganish jarayonida o'qituvchi kichik yoshdagi o'quvchilar diqqat-e'tiborini muntazam ravishda ish joyi va unda mehnat qilayotgan u yoki bu kasbni bir-biridan ajratib bo'lmasligiga qaratishi lozim.

Demak, masalalar (183, 245, 391, 613) mazmunida oshxona bayon qilingan bo'lsa - bu oshpazining (ish joyi); masalalar (43, 162, 172, 674, 768, va h.k.) mazmunida bog', tajriba maydoni ifodalangan bo'lsa - bu bog'bon, agronom, seleksionerning, parrandachilik fermasi - bu parrandaboqar operatorning; sirk - bu dorboz, akrobat, janglyor; asalari uyasi - bu asalarichining, poyezd - bu teplovoz

mashinisti, teplovoz mashinisti yordamchisining; vagon – bu konduktor, vagonni kuzatuvchi va ta'mirlovchining ish joyi hisoblanadi.

Shu tariqa, o'quvchilar mazmunida u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish, xizmat ko'rsatish va hokazolar bilan bog'liq ish joylari ifodalangan masalalarni yechish orqali o'qituvchi ularda mehnat qilayotgan shaxslarning kasblarini bilib olishlari, xotirasidan uchgan ayrim kasblarni takrorlashlari, shubhasiz ularning kasblarga doir so'z boyligini boyitish barobarida kichik maktab yoshidagi o'smirlarning uzoq xotirasidan joy olishini yoddan chiqarmasligimiz lozim.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni boshlang'ich kasbga yo'naltirish bo'yicha ishlarning ko'lamini kengaytirishda ularning diqqat-e'tiborini mazmunida u yoki bu mehnat jarayoni bayon qilingan masalalarning keng potensial imkoniyatlaridan foydalanish asqotadi. Ular mazkur darslikda bayon qilingan masalalarning katta qismini tashkil etadi.

Quyida mazmunida mehnat jarayoni bayon qilingan masalalarni o'rganish orqali o'quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirish bo'yicha ayrim namunalar keltiramiz (qavs ichidagi sonlar darslikdan olingan masalalarning tartib raqami): kartoshka, piyoz, sabzi terib olindi (53, 1161) – sabzavotchi; to'g'ri to'rtburchak, shakl, kvadrat, kesma va h.k. shakllarni chizing (125, 144, 212, 214, 246, 298, 804, 893) – chizmakash; g'isht terdi (860) – g'isht teruvchi; to'g'ri to'rtburchak bo'limlarini turli ranglar bilan buyash (40) – buyoqchi; no'xat, makkajo'xori, qulupnay ekish (162, 172) – dehqon; detal tayyorlash (461) – tokar; traktor, avtomobil, motorni ta'mirlash (359, 364) – sozlovchi slesar; terak, qayin ko'chati o'tqazildi (558) – o'rmonchi; traktor yoqilg'i sarfi (198) – traktorchi mashinist, zapravkachi; velosiped yasash (419, 954) – yig'uvchi slesar; ko'chat o'tqazish (8, 228, 274) – bog'bon; uzumdan mayiz olindi (14) – uzumchi usta; qovun, tarvuz ekildi (283) – polizchi usta; qo'y junini qirqish (87) – jun qirquvchi usta; kuylak,

choyshab tikish (197,414,734,810, 894) – tikuvchi-motorist; gimnastika manqlari (263) – trener; murabbo qaynatdi (432) – qaynatuvchi; sharbat tayyorladi (446) – sharbat agregati apparatchisi; kompyuterda matn terish (113) – operator; qishda qo‘yga silos berdi (830) – omuxta yem sexlari ustasi; xiyobonga atirgul o‘tqazildi (895) – gulchi; xonadonda g‘oz va urdak bor (1111) – parrandaboqar; uzum, olxuri sharbatlari bankalarga solindi (1126) – sharbat agregati apparatchisi.

3-sinf darsligida u yoki bu mehnat qurollari bayon qilingan masalalarni o‘rganish jarayonida ham o‘qituvchi kichik yoshdagi o‘quvchilarning diqqat e‘tiborini mazkur qurollar qaysi kasb sohibiga tegishli ekanligiga va ularga to‘g‘ri javob topishlariga da‘vat qilishni unutmazligi lozim.

Quyida ana shunday masalalarni yechish orqali o‘quvchilarni kasblar bilan tanishtirish bo‘yicha namunalarni keltiramiz:

Chizgich (2) – chizmakash; dastarra, randa (7) – duradgor; avtomat dastgoh (177) – stanokchi tokar; avtomat stanok (922) – avtomat stanogi tokari; stanok (554) – tokar; traktor, kombayn, avtomobil (167) – traktorchi mashinist, kombaynchi, shofyor; suv chiqaruvchi nasos (828) – motorchi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko‘rinadiki, darslikda bayon qilingan masalalarni kasbning ish joyi, u qo‘llaydigan mehnat qurollari hamda amalga oshiradigan mehnat jarayonini o‘quvchilarni boshlang‘ich kasbga yo‘naltirish nuqtai nazaridan tahlil qilish, ularning kasblar olami bilan tanishtirish ko‘lamini keskin kengaytirish imkonini beradi. Bu esa kelgusida o‘quvchilarga erkin kasb tanlash huquqidan foydalanish uchun qulay sharoit yaratadi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish ko‘lamini yanada kengaytirishda yuqorida ko‘rsatilgan fan dasturlarini politexnik ta‘lim prinsipi asosida tahlil qilish asqotadi. Jumladan, 3-sinf dasturida ko‘zda tutilgan «Geometrik shakllar»: «Aylana», «Uchburchak», «To‘rtburchak», «Uzunlik

o'lchov birliklari» kabi geometrik tushunchalarni o'rganish jarayonida ularni kundalik ishlab chiqarishda, texnikada, tabiatda va boshqa sohalarda qo'llaniladigan uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari, yo'l-harakat belgilari, qurilish materiallarining va h.k. ilmiy asosini tashkil etishini bolalarga ko'rsatish orqali bolalarning kasblar olami to'g'risidagi tushunchalarini kengaytirishga erishish mumkin (4-jadval).

4-jadval.

t/r	Geometrik shakllar	Kasb tanlash mazmuni	kasblar
1.	Aylana	<p>Bolalarga turmushda, texnikada va tabiatda asosi aylanadan iborat bo'lgan shakllar, buyumlar, harakatlarni ko'p uchratish mumkinligini ko'rsatish.</p> <p>Uy-ro'zg'or buyumlari (chelak, choynak, piyola)ning asosi aylana shaklida tayyorlanadi.</p> <p>Ishlab chiqarishda foydalaniladigan yumaloq egov, aylana sirtiga ega bo'lgan sim, turli-tuman mashinalar, mexanizmlarning g'ildiraklari aylana shaklida bo'ladi, ular aylana shaklida harakat qiladilar.</p> <p>Yo'l belgilaridan buyuruvchi va ko'rsatuvchi belgilar, svetofor chiroqlari aylana shaklida bo'ladi.</p> <p>Soat ko'rsatkichlari aylana shaklda harakat qiladi.</p>	<p>Novvoy</p> <p>Slesar</p> <p>Avtomobil shofyori</p> <p>Yo'l patrul xizmati xodimi</p> <p>Soatsoz</p> <p>Degrizchi</p> <p>Zargar</p>

		Qozonning ustki qismi aylana shaklda quyiladi. Uzuk, bilakuzuk, sirg'a aylana shaklida tayyorlanadi.	
2.	Uchburchak	Arralarning tishlari uchburchak shaklida bo'ladi. Ogohlantiruvchi yo'l belgilari teng tomonli uchburchak shaklida bo'ladi. Mebel, stulning oyoqlari uchburchak shaklida bo'ladi.	Duradgor Yo'l patrul xizmati xodimi Mebelchi
3.	Turtburchak	Tunuka yassi kvadrat, romb shaklida egov ishlatiladi. Faner, g'isht, kafel kabi materiallar to'rtburchak shaklida tayyorlanadi. Eshik, darvoza, sandiq asosi, sandal ham to'rtburchak shaklida tayyorlanadi. Randa, bolg'aning qismlari to'rtburchak shaklida bo'ladi. Bolalar va kattalar kiyib yurgan do'ppilarning to'rt tomoni bor.	Slesar Quruvchi Duradgor Do'ppido'z

Shunday qilib yuqorida bayon qilinganlar boshlang'ich matematika ta'limi jarayonida o'quv dasturi va darsliklarining mazmunini kasb, kasbning ish joyi, kasbning mehnat jarayoni, kasb qo'llaydigan mehnat qurollari, mehnat mahsuloti hamda politexnik ta'lim prinsipi nuqtai nazaridan tahlil qilish o'qituvchiga o'quvchilarni kasblar olami bilan muntazam ravishda tanishtirib borish, ularning kasblarga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish imkonini beradi.

2.2. «Tabiatshunoslik» darslarida maktab o'quvchilarini kasblar olami bilan tanishtirish

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari davrida o'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash maktabning eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki, to'g'ri kasb tanlash har bir insonning o'z kuch, qobiliyatini maqsadga muvofiq qo'llashga imkon beradi. Shu bois maktab, bu ishda yosh avlodga yordam berishi kerak, kasbga yo'llash bo'yicha dastlabki maslahatni tashkil qilishi kerak.

Fan, texnika va ilg'or texnologiyalarning rivojlanishi munosabati bilan o'simlikshunoslik, qishloq xo'jaligi, chorvachilik va b.q. sohalarda yangi texnika, mexanizasiya qo'llanilmoqda.

Shu bois yuqorida ko'rsatilgan sohalarda ommaviy ishchi kasblar faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Hayvonlarni sun'iy o'rchitish, qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashda biologik metodlardan foydalanish, oldindan rejalashtirilgan sifatlarga ega bo'lgan qishloq xo'jalik ekin (paxta, bo'g'doy, o'rik, shaftoli, va h.k.)larini hamda chorva mollarini o'rchitish, parvarish qilishda band bo'lgan ota-onalar, kattalarning kasblari, yoshlarda tabiatshunoslik, botanika, zoologiyadan chuqur bilimlarni egallashni taqazo etmoqda.

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida ota-onalar va kattalarning mehnati industrial mehnatning turlaridan biriga aylanmoqda. Qishloq xo'jalik tarmog'ida mehnat qilayotgan 160 ga yaqin kasb va mutaxassislikdan har beshtasidan biri mexanizatoridir.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti har bir kishidan ishlab chiqarishda o'z qobiliyati va mehnat faoliyati ko'nikmasi, malakasi hamda energiyasini maksimal rivojlantirishni taqazo etmoqda.

Kasbga yo'naltirish ikki bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda – kasb haqida axborot berishda ilmiy-texnika tarqqiyotining yetakchi tarmoqlari: qishloq xo'jaligi (o'simlikshunoslik va chorvachilik)ni mexanizasiyalash va avtomatizasiyalash, ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan o'simlik va chorva mollari zotlarini yaratish, o'quvchilarning mehnat va turli

kasblar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish hamda xalq xo'jaligi katta ehtiyoj sezayotgan kasblarga ularning e'tiborini qaratishdan iboratdir.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ikkinchi bosqichida esa maktab joylashgan hudud qishloq xo'jaligi va sanoatining asosiy kasb va mutaxassisliklariga e'tibor qaratiladi. Bunda o'quvchilarga hududda mehnat qilayotgan kasblar haqida ma'lumot berish, mazkur kasblarning kishilarga qo'yadigan talablari, ularni qayerda egallash mumkinligi, bu kasblarni o'rganishda fanlarning, ayniqsa tabiatshunoslik, botanikaning o'rnini qanday ekanligi ko'rsatib boriladi.

Shuning bilan birgalikda ushbu kasb, mutaxassisliklarni egallash uchun har bir kasb, mutaxassis qanday sifatlarga ega bo'lishi o'qituvchi tomonidan aytib boriladi.

O'quvchilarning politexnik bilimlari, kasblar haqidagi tasavvurlari ularning ishlab chiqarishga uyushtirilgan ekskursiyalari orqali kengaytirib boriladi. O'quvchilarning politexnik bilimlari darajasi ayniqsa, ularni amaliy ishlarni bajarishga jalb qilinganda, ayniqsa yuqori bo'ladi.

O'quvchilarni ongli kasb tanlashga yo'llashda ularning bilimga bo'lgan qiziqishini o'stirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish muhim o'rin egallaydi. O'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishlari ijodiy qobiliyatlari va faolligini o'stirish to'garak, klublarda samarali amalga oshiriladi.

III-IV sinflarda tabiatshunoslik predmetini o'rganish jarayonida o'simliklarning yashash sharoiti, o'sish, rivojlanish va ko'payish qonuniyatlarini o'quvchilarga ochib berish hamda ushbu bilimlarni maktab o'quv-tajriba uchastkasida, tomorqada, tabiatni muhofaza qilishda, odam hayoti va faoliyatida qo'llanilishini ko'rsatish zarur.

O'qituvchi tabiatshunoslik predmetlarining o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha imkoniyatlarini aniq ko'rsata olishi lozim.

III-IV sinf tabiatshunoslik o'quv dasturlari mavzulari bilan uzviy bog'langan kasb tanlashga doir materiallar o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelsa, u holda ularning o'z bilimlarini chuqurlashtirish va kasbga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish bo'yicha faoliyatini faollashtiradi.

Boshlang'ich sinflar xonalarida kasbga oid axborot berish bo'yicha kasb tanlash burchagini tashkil qilish zarur. U ko'rgazmali va tushunarli shaklda bo'lishi bilan birga odamlar mehnat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va turli mehnat turlarini aks ettirishi lozim. Burchakni bo'limlaridan biri qishloq xo'jaligi kasblariga bag'ishlangan bo'lishi kerak. Burchakda maktab joylashgan iqtisodiy rayon xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari, yetakchi kasblarni, ularning mehnat sharoiti va mehnat xususiyatlarini ifodalovchi fotosuratlar bo'lishi kerak.

III-IV sinflar tabiatshunoslik predmetlarini o'rganishda o'qituvchi uning har bir mavzusini qishloq xo'jalik mehnati turlari bilan bog'lagan holda gapirib berishi, aniq kasb va mutaxassisliklar bilan tanishtirishi kerak.

III-IV sinflar tabiatshunoslik predmetini o'qitish jarayonida o'quvchilarning o'quv-tajriba uchastkasidagi amaliy ishlari kasbga yo'naltirish ishining muhim bug'ini hisoblanadi. Tajriba uchastkasida o'quvchilar madaniy o'simliklarni o'stirish bo'yicha ma'lum ko'nikmalarni egallaydilar. Bu o'quvchilarni qishloq xo'jalik mehnatiga bo'lgan qiziqishini o'stiradi.

III sinfda «O'simlikshunoslik, dala o'simliklari» mavzusini o'rganishda o'qituvchi o'quvchilarni g'o'za, bo'g'doy, sholi va boshqalarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, odamlarning turli-tuman talablarini qondirish uchun (dori-darmon, chorvachilik ozuqasi, tabiat muhofazasi va h.k.) juda zarurligi bilan tanishtirishi lozim. Shuningdek, o'qituvchi mazkur mavzu savollarini o'rganishda yovvoyi o'simlik shakllaridan qimmatli xususiyatlari bilan farq qiluvchi yangi o'simlik navlarini yaratish bo'yicha seleksioner olimlarning ishlari haqida gapirib berishi kerak.

O'quvchilarda kasbga qiziqishni tarbiyalash, kasbni to'g'ri tanlashni nazarda tutadigan yetakchi motivlardan biri hisoblanadi. Demak, maktabda kasbga yo'naltirish ishlarining muhim yo'nalishlaridan biri – bu o'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishni aniqlash va o'stirish bo'lmog'i lozim. O'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishini aniqlash, ularning muayyan shaklda tayyorlangan anketalarni to'ldirishi, umuta'lim fanlari bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishini o'rganish, kasb haqida individual suhbatlar o'tkazish kabi didaktik usullar bilan amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning kasbga bo'lgan havasi dinamikasi va rivojini kuzatib borish uchun anketalar tarqatish usulini har bir sinfdan muntazam o'tkazib borish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni tabiatshunoslik faniga bo'lgan qiziqishini ularning kasbga bo'lgan qiziqishiga aytantirishda mazkur fanning mavzu va savollarini o'rganish jarayonida kichik maktab yoshidagi bolalarni muntazam ravishda kasblarning mehnat mazmuni, sharoiti bilan tanishtirish lozim. Quyidagi jadvalda 3-4-sinf «Tabiatshunoslik» fanini o'qitishda o'quvchilarni kasblar bilan tanishtirishning keng imkoniyatlari keltirilgan.

5-jadval

t/r	Mavzu, savollar	Kasb tanlash mazmuni	Kasblar
1.	Suv, Tabiatda suv	O'simliklarning nobud bo'lishini oldini olish, ulardan mo'l-ko'l hosil yig'ib-terib olish uchun ularni muntazam ravishda sug'orish. Suvni odamlar hayoti uchun zarurligini ko'rsatish	Paxtakor, bog'bon, suvchi, mirob Vodoprovod, suvoqova ishchilari

2.	Suvni ehtiyot qiling, suvni ifloslanishidan muhofaza qiling	Chuchuk suvdan tejab-tergab foydalanish, uning yangi zahira (suv omborlari, artizan quduq) larini izlab topish; suvni ifloslantiruvchi manbalarni namoyon qilish, ro'yxatini tuzish, zarur bo'lganda ularga jarimalar solish. Ifloslangan suvlarni tabiiy ravishda tozalash	Gidromeliorator irrigator, suvchi mirob, ekologiya, qo'mitasi xodimlari
3.	Granit	Mahalliy bino, ko'prik va h.k. Qurilish ishlarida granitdan foydalanishni ko'rsatish	Quruvchi, tosh taroshlovchi
4.	Qum va gil	Qumdan g'isht tayyorlash, undan binolar qurishda foydalanish. Gil tuproqdan kulolchilikda, chinni buyumlar tayyorlashda foydalanishni ko'rsatish	G'isht pishiruvchi, g'isht teruvchi, kulol
5.	Kalsitlar	Bo'r, oddiy ohaktosh va marmartoshdan devor, binolarni oqlashda, bo'rdan tish yuvishda, marmardan binolarni fundamenti, pollarni qoplashda	Malyar, sangtarosh, quruvchi, kafelchi

		foydalanishni ko'rsatish.	
6.	Toshko'mir	Toshko'mir yordamida temir rudasidan chuyan eritib olish, chuyandan turli buyumlarni tayyorlash.	Chuyan erituvchi
7.	Neft va tabiiy gaz	Neft va tabiiy gazni yer ostidan qazib olish, iste'molchilarga yetkazishni ko'rsatish	Neftchi, gazchi, neft va gaz quvur-larini bir me'yor-da ishlatuvchilar
8.	Tuproq	Barcha o'simliklarning urug'laridan unib chiqishi, ildiz tizimining rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratish lozimligini ko'rsatish	Dehqon, fermer, g'allakor, paxtakor
9.	O'simlikshunoslik	Inson tomonidan g'o'za, bo'g'doy, sholi, makkajuxori va b.q. o'simliklarni o'sishi, rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratilishi.	Paxtakor, g'allakor, sholikor, suvchi, mirob, traktorchi, mashinist
10.	Ekinzorlarning foydali va zarar-li hasharotlari	Ekinzorlarda zararli hasharotlarga qarshi biometodlardan foydalanish	Biolaboratoriya xodimlari
11.	Bog'	Maktab atrofida mavjud bog', mevali daraxtlarni ko'paytirish bo'yicha ko'chatxona, daraxtni	Bog'bon, seleksioner

		parvarish qilish, daraxtlarni yangi tezpishar, kasalliklarga chidamli navlarini yaratish bo'yicha otanalar mehnatini ko'rsatish	
12.	Tut daraxti, ipak qurti	Tut daraxti barglari bilan ipak qurtini boqish uchun inson tomonidan barcha shart-sharoit yaratilishi	Pilla qurti boquv-chi usta, pillakor, bog'bon, pillaxona xodimlari
13.	Sog'ligimizni saqlashimiz	Inson tanasi terisida og'ir teri kasalliklarini kelib chiqishining oldini olish maqsadida, ayniqsa badanning ochiq qismini, oyoq-qo'lni muntazam yuvish, yoz kunlarida har kuni cho'milish zarurligini ko'rsatish	Bolalar doktori, nevrolog, xirurg, okulist
14.	Yurak va qon		Kardiolog
15.	Jonajon o'lka	Maktab atrofida, biz yashayotgan qishloq atrofida, tuman hududidagi asosiy ishlab chiqarish korxonasi (zavod-fabrika, qishloq xo'jalik mahsulotlariga qayta ishlov berish sexi va h.k.)larida mashg'ul	Traktorchi-mashinist, sabzavotchi, usta-bog'bon, parrandachi, operator, kichik vetfeldsher

		bo'lgan ota-onalar, kattalarning kasblari	
16.	O'lkamiz ob-havosi	O'lka (tuman, viloyat va respublika)mizda ob-havoni nazorat qilib turuvchi markaz xodimlari	Gidromet markazi xodimlari
17.	Joyda oriyentir olish. Plan va masshtab.	Maktab atrofida joylashgan paxtazor, bo'g'doyzor, bog'ni rejasini tuzish, yosh oilaga tomorqa, uy-joy ajratib, ularning rejalarini tuzish.	Yer o'lchovchi, rejalashtiruvchi, meliorator
18.	Geografik karta		Kartograf
19.	Vatanimiz O'zbekiston globus va kartada		Kosmonavt, astronom olim
20.	Jonajon o'lkamiz O'zbekiston, Siz yashab turgan viloyat	Samarqand viloyatining yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan ota-onalar, kattalar kasblari bilan tanishtirish	Paxtakor, g'allakor, pillakor, quruvchi, tokar, slesar, shofyor va h.k.
21.	Tog'lar, tog' yaylovlari	Tog' oldi yaylovlarida qoramolchilik, yilqichilik, qo'ychilikni rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatish	Otboqar, molboqar, qo'yboqar
22.	Buloq, soy va daryo	Qishloq xo'jaligi ekinlarini yoz faslida suvga bo'lgan	Mirob, suvchi, irrigator,

		<p>ehtiyojinibir tekisda ta'minlash maqsadida maktabimiz, yashab turgan joyimizda qurilgan suv omborlari, plotinalar, suv taqsimlovchi inshootlarda xizmat qilayotgan ota-onalar va kattalar kasblari bilan tanishtirish</p>	<p>meliorator, gidrotexnik</p>
23.	<p>Odamlar barpo etgan suv havzalari</p>	<p>Maktabimiz, yashab turgan qishlog'imiz hududidan o'tgan katta-kichik kanallar, suvni o'tkazish, taqsimlash, suvdan tejab-tergab foydalanish maqsadida ishlatiladigan qurilma va moslamalardan foydalanib yerni yomg'irlatib, tomchilatib sug'orish bilan mashg'ul bo'lganlar kasblari bilan tanishtirish</p>	<p>Elektr montyor, mirob, suvchi, irrigator, meliorator, baliqchi, o'rmonchi, traktorchi mashinist</p>
24.	<p>O'zbekiston ko'llari</p>	<p>Maktabingiz, yashab turgan qishlog'ingiz atrofidagi ko'l, hovuzlarda baliq, o'rdak, andatra va h.k. parvarish qilish bilan mashg'ul bo'lgan ota-</p>	<p>Baliqchi, parrandachi operator</p>

		onangiz, kattalaringiz kasblari tanishtirish.	
25.	Suv havzalarini muhofaza qilish	Suv havzalariga iflos suvlarni, ishlab chiqarish chiqindilarini oqizib yuborishning oldini olish, mavjud suv havzalari ekologik holatini nazorat qiluvchi ota-onalar, kattalarning kasblari bilan tanishtirish	Ekologiya qumitasi xodimlar, ekolog nazoratchilar
26.	Cho'llar, cho'l tabiatini inson tomonidan o'zgartirilishi	Maktabingiz, qishlog'ingiz atrofida joylashgan cho'llarga suv keltirib, ularni bog'u-rog'larga aylantiruvchilar. Cho'llarda ixota daraxtlari o'tqazish, parvarish qilish	Ekskavatorchi, meliorator, irrigator, traktorchi mashinist, o'rmonchi, buldozerchi

6-jadval

4-sinf "Tabiatshunoslik" predmetining o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish imkoniyatlari

Mavzu, savollar	Kasb tanlash mazmuni	Kasblar nomlari
Jonajon o'lka	Maktab atrofida joylashgan qishloq, tuman hududidagi asosiy ishlab chiqarish korxonasi (zavod-fabrika,	Traktorchi mashinist, sabzavotchi, usta-bog'bon, parrandachi

	qishloq xo'jaligi maxsulotlari va qayta ishlov berish va h. k.)larda mashg'ul bo'lgan ota-onalar, kata yoshdagilarning kasblari	operator, kichik feldsher
O'lkamiz ob-havosi	O'lka (tumani, viloyat va respublika)mizda ob-havoni nazorat qilib boruvchi markaz xodimlari	Gidromet markaz xodimlari
Joydan orientir olish. Paln va mashtab	Maktab atrofida joylashgan paxtazor, bug'doyzor, bog'ning planini tuzish, yosh oilaga ajratilgan tomorqa, uy-joy planlarini tuzish	Yer o'lchovchi, rejalashtiruvchi, meliorator, kodastor
Geografik karta		Kartograf

Jonajon o'lkamiz O'zbekiston. Siz yashab turgan viloyat	Metallurgiya sanoati. Kimyo sanoati. Binokorlik materiallar sanoati. Paxta tozalash sanoati. Qurilish sanoati. Mashinasozlik sanoati.	Mix soluvchi, loykash, converter pulat kuyuvchi, metal qazdiruvchisi, erituvchi, dozalash opparatchisi, sulfat kislatasi ishlab chiqarish opparatchisi, kimyoviy tahlil labaranti;
---	---	--

		<p>bug'lantiruvchi, bitum pishiruvchi, shishapaz; literchi, presslovchi, qurutuvchi; duradgor, armaturachi; elektrpayvandchi, g'isht teruvchi, suvoqchi, koshinkor, fezalovchi, tokar, bo'yoqchi, mexanik- yig'uvchi ishlari slesari.</p>
<p>Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi</p>		<p>Meva va rezavorlarni qayta ishlash bo'yicha meva-sabzavotchi usta, usta bog'bonlar, uzumchilik sohasi bo'yicha, ekskavator mashinasi, traktorchi machinist, chorvachilik mexanizatori, pillachi master, keng profilli traktorchi mashinist.</p>

<p>Yengil sanoat maishiy xizmat</p>		<p>To'qish bo'yicha master yordamchisi, yigirish bo'yicha master yordamchisi, gazmollar pardozlovchisi, tikuvchi motoristka, fotograf, erkaklar sartaroshi, erkaklar va bolalar kiyimlarini tikuvchisi, gilam to'quvchi.</p>
<p>Jonajon o'lkamiz O'zbekiston. Siz yashab turgan viloyat</p>	<p>Transport-temir yo'l, avtomobill, havo yo'llari Neft va gazni qazib oluvchi sanoat</p>	<p>Teplovoz mashinisti yordamchisi, ko'chma (sostav) teplovozlar remonti bo'yicha slesar, "III- klass shofyor", quruvchi, neft va gaz quduqlarini eksplatatsiya qilish va qidirish maqsadida burg'ulash burg'ulovchisi yordamchisi, quduqlarni tekshirish bo'yicha operator, burg'ulash qurilmalari dezilchisi (motorist)</p>

Tog'lar. Tog' yaylovlari		Qora mollar bo'yicha chorvachilik ustasi, mashinada sut sog'ish ustasi, elektmontyor ixtisosligiga ega bo'lgan chorvachilik fermalari mexanizatori, asalarichi, hayvonlar chorvachilik bo'yicha master cho'pon
Bulog', ko'l va daryo	Qishloq xo'jaligi ekinlarini yil faslida suvga bo'lgan ehtiyojini bir tekisda ta'minlash maqsadida siz yashab turgan joyda qurilgan suv omborlari, plotinalar, suv taqsimlovchi inshootlarda xizmat qilayotgan otanonalar, kattalar kasblar bilan tanishtiring	Gidrotexnik, irrigator, meliorator, mirob, suvchi, meliorator ishlari mexanizatori, ekskavator mashinisti, mirob, suvchi
Odamlar barpo etgan suv havzalari	Siz yashab turgan hududdan o'tgan	Yomg'irilatib va tomchilatib

	<p>katta-kichik kanallar, suv o'tkazish, taqsimlash qurulmasi moslamalardan foydalanib ekinlarni yomg'irlatib, tomchilatib sug'orish bilan mashg'ul bo'lgan xodimlarning kasblari bilan tanishing.</p>	<p>sug'orish mashinalari mashinisti, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish ustasi (suvchi), elektrmontyori, irrigator, meliorator. Gidromeliorator ishlar traktorchi mashinisti</p>
<p>O'zbekiston ko'llari</p>	<p>Ko'llarda baliq, o'rdak, ondatra va boshqa hayvonlarni parvarish qilish bilan mashg'ul bo'lgan ota-onalarimiz va kattalarimiz kasblari bilan tanishing</p>	<p>Baliqchi, parrandachi, ondatrachi</p>
<p>Cho'llar. Cho'l tabiatini inson tomonidan o'zgartirilishi</p>	<p>Insonlarni bunyodkorlik faoliyati tufayli Mirzacho'l, Qizilqum cho'llari boshqa cho'llardan minglab gektar yerlar paxta dalalari, bog'-rog'lar, tokzorlarga aylantirildi.</p>	<p>Ekskavatorchi machinist, buldozerchi, gidromeliorativ ishlari mexanizatori, paxtakor, uzumchi usta, mirob, keng ixtisosli traktorchi mashinist, gidrotexnik</p>

2.3. 4-sinf ona tili ta'limida o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish imkoniyatlari.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qishga va mehnatga vijdonan munosabatda bo'lishini shakllantirish, ota-ona va boshqa oila a'zolarining kasblariga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish ishi boshlang'ich ona tilini o'rganish jarayonida davom etadi.

Shu bois, I-IV sinflar ona tili fanlari namunaviy o'quv dasturi va darsliklarining bu sohadagi imkoniyatini namoyon qilishga ehtiyoj katta. Ona tili boshlang'ich ta'limining amaldagi dastur va darsliklarining kasbga yo'naltirish imkoniyatlarini o'rganish va tahlil qilishda: mashq matn, hikoya, she'r, maqol, tez aytish va h.k.larda bevosita nomlari tilga olingan kasblar (va mehnat mazmuni); mashqlar matnlarida u yoki bu kasb uchun xarakterli bo'lgan mehnat faoliyat turlari (masalan, Nima qilyapti? – Tikyapti; Nima qildi? – Tikdi; Nima qiladi? – Tikadi); mashqlar matnlarida u yoki bu kasbga doir biror-bir alomat, belgilardan darak beruvchi materiallar mazmunlarini o'quvchilarni kasbga yo'naltirish nuqtai nazardan fikrlash asqotadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasblar olami to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarini chuqurlashtirish maqsadida IV sinf ona tili darsligida nomlari tilga olingan ko'plab kasblar (masalan, bog'bon, dehqon, quruvchi, uchuvchi, bo'yoqchi, miskar, shifokor, baliqchi va h.k.) misolida ularni mazkur fanning «So'z va so'z tarkibi», «So'z turkumi», «Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanilishi», «Qaratqich kelishigi», «Tushum kelishigi», «Jo'nalish kelishigi», «Chiqish kelishigi», «Ot yasovchi qo'shimchalar», «Sifat so'z turkumi», «Kishilik olmoshi» va boshqa mavzular, «Sifat yasovchi o'tgan zamon fe'li», «Sifat yasovchi kelasi zamon fe'li», «Harakatni bildiruvchi so'zlar» kabi mavzu va savollarga doir mashqlar, topshiriqlarni bajarishga jalb qilish bo'yicha ko'plab namunalar ishlab chiqilgan. Ular quyidagi mavzu va mashqlarda bayon qilingan.

«Soʻz va soʻz tarkibi»

135-mashq.

Soʻz	Oʻzak	Soʻz yasovchi qoʻshimcha	Soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimcha	Oʻzakdosh soʻzlar
Baliqchi	Baliq	-chi	-	Baliqsiz

«Soʻz turkumlari»

139-mashq.


Kim? Nima?	Qanday?	Necha? Nechanchi?	Nima qildi? Nima qilayapti? Nima qilmochi?
Dehqon kim? Uchuvchi kim?	Mehnatkash Dovyurak		Moʻl hosil olibdi Nihol oʻtqazayapti Parvoz qilmoqchi Uchmoqda Uchayapti

Otlarning egalik qoʻshimchalari bilan qoʻllanilishi.

159-mashq.

Tikuvchim	Tikuvchimiz	Doʻppichim	Doʻppichimiz
Tikuvching	Tikuvchingiz	Doʻppiching	Doʻppichingiz
Tikuvchi	Tikuvchilari	Doʻppichi	Doʻppichilari
Oshpazim	Oshpazimiz	Choʻponim	Choʻponimiz
Oshpazing	Oshpazingiz	Choʻponing	Choʻponingiz
Oshpaz	Oshpazlari	Choʻpon	Choʻponlari

175-mashq.




179-mashq. So‘zlarni o‘qing. Ularga egalik qo‘shimchalarining birini qo‘shib yozing: baliq-baliqchi, qo‘shiq-qo‘shiqchi, pilla-pillakor, paxta-paxtakor, o‘rmon-o‘rmonchi, bichish-tikish-tikuvchi, to‘qish-to‘quvchi, qurish-quruvchi, iqtisod-iqtisodchi.

№	Kelishiklar	So‘rog‘i	Qo‘shimchalar
1.	Bosh kelishigi	Miskar (kim?)	Sabzavotchi, miskar
2.	Qaratqich kelishigi	Kimning?	Sabzavotchining, miskarchining
3.	Tushum kelishigi	Kimni?	Sabzavotchini, miskarchini
4.	Jo‘nalish kelishigi	Kimga?	Sabzavotchiga, miskarchiga
5.	O‘rin-payt kelishigi	Kimda?	Sabzavotchida, miskarchida
6.	Chiqish kelishigi	Kimdan?	Sabzavotchidan, miskarchidan

Qaratqich kelishigi

209-mashq. Qaratqich kelishigidagi otga mos otlar topib birikma tuzing va yozing.



Tushum kelishigi

213-mashq. Berilgan so‘zlarga tushum kelishigidagi otni tanlab, birikma shaklida yozing.

Devorni

Eshikni

Ramkani

bo‘yadi (bo‘yoqchi)

Tushum kelishigi

217-mashq. Berilgan tushum kelishigidagi otga mos fe'llar topib, birikma tuzing va yozing.

Quruvchini *quvontiradi*
rag'batlantiradi
ilhomlantiradi

Jo'nalish kelishigi


227-mashq. Berilgan so'zlarga mos otlar topib, ularni qaratqich yoki tushum kelishigida qo'llab yozing.

Bo'yoqchi (ning) bo'yog'i,
Rassom (ning) kartinasi, peysaji,
Sabzavotchi (ning) karami,
Quruvchi (ning) binosi.

229-mashq. Berilgan otga mos so'z topib, birikma tuzing.

Cho'ponga o'tloq *O'ymakorga* ish joyi
otar yog'och suv mehnat qurollari

244-mashq. Berilgan fe'lga mos otlar toping. Uni chiqish kelishigida qo'llab, birikma tuzing va yozing.



Ot yasovchi qo'shimcha

256-mashq. So'zlarga mos so'z yasovchi qo'shimchalarni qo'shib ko'chiring.

Asalari ... - chi Asalarichi
Pilla ... - kor Pillakor

Futbol ... - chi	Futbolchi
Soat ... - soz	Soatsoz
Galla ... - kor	Gallakor
Sabzavot - chi	Sabzavotchi
Chegara ... - chi	Chegarachi
Tunuka... - soz	Tunukasoz
Suv ... - chi	Suvchi
Uyma ... - kor	O'ymakor
Paxta... - kor	Paxtakor
Buyoq ... - chi	Bo'yoqchi
Suvoq ... -chi	Suvoqchi

407-mashq.

Novvoy xamir tayyorlamoqchi

tandirga olov yoqmoqchi

tandirni qizdirmoqchi

shirmoy non yopmoqchi

413-mashq. Harakatni bildirgan so'zlarni toping. Ularni ega bilan birga ko'chiring.

Biz mashhur futbolchi bilan uchrashuvga bormoqchimiz.

Sen nimaga shaxmatchi kasbini tanlamoqchisan?

Mehribon Mehribon uyidagi bolalarga sovg'a qilmoqchi.

Ular O'zbekiston Qahramoni rahbarlik qilayotgan paxtakor maydonini kuzatdilar. Biz quruvchilar qishloqda ko'rgan zamonaviy uylarda yashayapmiz.

410-mashq. Azimning dadasi cho'pon.

414-mashq. Harakatni bildiradigan so'zlar oldiga kishilik olmoshlaridan mosini qo'yib gaplar tuzish. Fe'lning qaysi shaxs-sonda ekanini ayting.

O'qituvchi aytdi	Yozuvchi yozmoqchi
O'qituvchi aytmoqchi	Yozuvchi yozayapti
O'qituvchi aytasan	Yozuvchi yozayapsan

O'qituvchilar aytmoqchimiz	Yozuvchilar yozayapmiz
O'qituvchilar aytayapsiz	Yozuvchilar yozmoqchisiz
O'qituvchilar aytmoqchilar	Yozuvchilar yozmoqdalar

Duradgor arralayapti
Duradgor arralamoqchi
Duradgor arralaysan

416-mashk. O'quvchilar dorivor o'simliklarni terayapti –
farmasevt.

422-mashq. Biz yerni sabzavot ekish uchun tayyorladik –
sabzavotchi.

434-mashq. «Sharq jannati» deb atalgan bog'lar. Siz ham yangi
bog' yaratishga o'z hissangizni qo'shing (bog'bon).

438-mashq. Har bir so'zga so'roq bering.
Gulchi kim? Suvchi kim?

439-mashq. Foydali qush olma daraxtini zararkunandalardan
tozalayapti (entomolog)

451-mashq. Non qachon paydo bo'lgan? – (novvoy)

455- mashq. Miskar, tunukasoz, kosib, chegarachi.

465-mashq. Nuqtalar o'rniga zarur unli harf qo'yib yozing.
ag..nom - agronom,

k..mandir - komandir,
avtom..bil - avtomobil (shofyor).

435-mashk. Matn mazmunini kasb tanlash nuqtai nazaridan fikrlash. Iqtisodiy bilimga ega bo'lmagan odam hamyonidan ajraladi: iqtisodchi.

453-mashq. O'zbekiston suv havzalari ko'l (suv havza)lari haqida so'z yuritilgan. Bu yerda asosiy belgi suv, unga qarab suvda baliq yashaydi (baliqchi).

456-mashq. Asosiy belgi o'tloq va suv-chorva mollari boqilishi mumkin bo'lgan maskan-chorvador.

465-mashq. Nuqtalar o'rniga zarur unli harf qo'yib yozing. Uning aytilishi va yozilishida farqni izohlang.

Sam.viy - samoviy (uchuvchi), avtom..bil - avtomobil (shofyor, haydovchi), m..tor - motor (motorchi), agr..nom - agronom, huq.q - huquq (yurist).

Ona tili darslarida bayon qilingan kasblarni alifbo tartibida yozib chiqing: O'rmonchi, shifokor, tikuvchi, bog'bon, traktorchi, paxta terish mashinasi haydovchisi, paxtakor, issiqxona operatori, tunukasoz, miskar, chilangar, asalarichi, quruvchi, duradgor, arxeolog, baliqchi, yozuvchi, g'allakor, shaxmatchi, oshpaz, novvoy, bo'yoqchi, to'quvchi, cho'pon, farmasevt (dori tayyorlovchi), sabzavotchi, pillakor, hisobchi, iqtisodchi, chegarachi, uchuvchi, motorchi, jarroh, nakqosh, rejissor, nazoratchi.

470-mashq. Bir xil undoshli so'zlarning yozilishini yodingizda tuting va ular bilan bog'liq kasblar nomini yozing.

Pilla-pillakor

Chakqon tennischi

Fijjak-g'ijjakchi

Metal-chilangar, tunukasoz

Kasseta-radiotexnik, elektronchi.

Shunday qilib, yuqorida bayon qilinganlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatshunoslik fanining o'simlikshunoslik, chorvachilik va ular bilan bog'liq sohalar kasblari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish ularning so'z boyligini boyitib borish barobarida mazkur kasblar ular xotirasida uzoq saqlanishiga imkon yaratadi.

3-§. Boshlang'ich maktab ta'limida o'quvchilarni kasb-hunarlar bilan tanishtirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish.

Boshlang'ich maktabda kasbga yo'naltirishning maqsadi va vazifalari.

Maqsadi:

-o'quvchilarni kasblar olamining turli-tumanligi bilan tanishtirish;

-o'quvchilarda mehnatga mehr-muhabbat va unga vijdonan munosabatlarni shakllantirish, uning inson va jamiyat hayotidagi rolini tushuntirish;

-o'quvchilarni bo'lajak kasbini tanlashga tayyorlash;

-o'quvchilarda ota-onalarning kasblariga va maktab atrofida mashg'ul bo'lgan keng tarqalgan kasblarga qiziqishni rivojlantirish.

Vazifalari:

-o'quvchilarni shaxsiy rivojlanishlari uchun yetarli sharoitlar yaratish;

-o'quvchilarni jamiyat hayotiga moslashtirish;

-o'quvchilarni ijodiy potensialini va o'z-o'zini namoyon qilishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish;

-kichik maktab yoshidagi o'quvchilar shaxsi va intellektini har tomonlama rivojlantirish;

-o'quvchilarning o'z kasblarini aniqlashlariga yordam berish.

Boshlang'ich sinflarda kasb tanlash ishini o'yin texnologiyalari asosida amalga oshirish mumkin.

"O'yin-bu uchqun, har narsani bilishga va qiziquvchanlik uyg'otuvchi olov" (V.Suxamlinskiy).

O'yinda qo'yidagi funksiyalar jamlangan:

Qiziqtirish (bu o'yinning asosiy funksiyasi).

Kommunikativ (muloqot qilish dialektikasini o'zlashtirish), o'yinda o'zini namoyon qilish; o'yinterapevt (hayotda mavjud bo'lgan, vujudga keladigan qiyinchiliklarni yengish); diagnostik (o'yin chog'ida me'yoriy xulq-atvordan og'ish, o'z-o'zini bilishdan

chetga chiqishni namoyon qilish; korreksion (shaxs ko'rsatkichlari tuzilmasiga ijobiy o'zgarishlarni kiritish); millatlararo muloqot (hamma odamlar uchun ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni bir xilligi); ijtimoiylashuv (insonni jamiyatidagi xulq-atvorini o'zlashtirishi).

Texnologiya (grekcha so'z bo'lib tehne – san'at, mahorat, malaka va logos so'zi – ta'limot) – anglatib, u biror ta'lim jarayonini amalga oshirishda qo'llaniladigan metodlar majmuasidir.

O'yin texnologiyasi. O'yin texnologiyasi qo'yidagi prinsiplar asosida amal qiladi:

-tizimlilik;

-konseptuallik (pedagogik jarayonni subyekt haqida nazariy tasavvur);

-ilmiylik;

-integratsiyalanganlik;

-natijalarni kafolatlanganligi;

-qayta hosil bo'lishi (tiklanishi);

-samaradorlik;

-yangilik;

-optimallik;

-pedagog shaxsiga yo'nalganlik.

Kasb tanlashda o'yin texnologiyasini qo'llash 1-4-sinflarda amalga oshiriladi.

Agar ushbu holat hisobga olinmasa kasb tanlash ishining ushbu bosqichlarida vorisiy (uzviy)lik buziladi, shu bois o'quvchilarning katta qismida o'quv-tarbiya jarayonida zarur natijalarga erishib bo'lmaydi.

Kichik maktab yoshida o'quvchini kasbiy o'z-o'zini anglashini emotsional-psixologik komponenti rivojlanadi. Bilish va motivasiya komponentlari sifatida rivojlanadi.

O'quvchini kasblar bilan tanishtirish barcha fanlarni o'rganish jarayonida 1-sinfdan boshlanadi. Boshlang'ich ta'lim o'quv materiallarining boyligi boshlang'ich sinflarda o'qishning butun davrida amalga oshiriladi.

Maktabda psixolog va ijtimoiy pedagog rahbarligida sinf rahbarlari o'quvchilarning kasbiy qiziqishlarining ustuvor deb hisoblaganlarini monitoring qiladilar. Uning natijalari har bir o'quvchini bo'lajak kasbiga bo'lgan shaxsiy munosabatlarini namoyon qilishga, zarur bo'lganida unga tuzatish kiritishga imkon beradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda o'yin texnologiyalariga bag'ishlangan ushbu uslubiy ishlanma o'quvchilarni ongli kasb tanlashlarini amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan. O'yin texnologiyalari bolani o'z-o'zini kasbiy tanlashini amalga oshirishiga yordam beradi. Jumladan, 3-sinf o'quvchilari yoqtirgan kasblar monitoringi natijalarini yuqori sinflarda o'tkazilgan so'rovnomalar natijalarini qiyoslashda ko'rish mumkin.

Qanday kasbni tanlashni hohlar eding (3-sinf)

-militSIONER

-olim

-dizayner

-vrach

-sartarosh

-prezident

-o'qituvchi

-kompyuter-muhandisti

-rassom

-haydovchi

-sotuvchi

-raqqosa

-san'atkor

-sportchi

-yurist

-quruvchi

-tadbirkor

Jami 17 ta kasb nomi aytilgan – 17

Tanlashni aniqlamadilar – 0.

Ota-onangni kasblarini tanlaysanmi?

Kelgusida tanlagan kasbingda senga eng muhimi nima?

Nº		3-sinf	8 sinf	9-sinf	10 sinf
1	Mashhurlik	3	4	4	4
2	Maosh	2	3	1	1
3	Qobiliyatni namoyon etish	4	1	3	2
4	Odamlarga foyda keltirish	1	2	2	3

Nº		3-sinf	8 sinf	9-sinf	10 sinf	
1	100	51				Yengil, biroq kam maosh to'lanadigan
2	90			84		
3	80		74		72	
4	70					
5	60					
6	50					Murakkab, ko'p maosh beradigan
7	40					
8	30					
9	20	9	22	16	28	

Qaysi kasbni tanlagan bo'lar eding?

Kasb tanlashda kimning fikri sen uchun muhim?

Nº		3-sinf	8-sinf	9-sinf	10-sinf
1	O'qituvchilar	23	0	5	7
2	Ota-onalar	41	33	21	30
3	Qarindosh-urug'lar	0	4	0	5
4	O'rtoqlar	4	4	5	3
5	O'zim	32	96	84	85

Sening fikringcha qaysi kasblar ommabop? Obruyli? (3-sinf)

-futbolchi

-aktyor

-olim

-tadbirkor

-xonanda

-doktor

-buxgalter

-o'qituvchi

-prezident

-militsioner

-sotuvchi

-dizayner

-harbiy

-santexnik

-kosmetolog

-elektrik

-sartarosh

(Bolalar tanlagan javoblar qizil qalam bilan belgilangan).

Natijalarni tahlil qilish asosida kasb tanlash bo'yicha kelgusidagi faoliyatni oldindan rejalashtirish mumkin.

Jumladan, ishchi kasblarni obruyi (prestij)ni ko'tarish, o'quvchilarga notanish yoki kam tanish bo'lgan kasblar haqida bilimlarni kengaytirish maqsadga muvofiq.

Yuqorida ta'kidlanganidek, kasblar bilan tanishtirish maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanib boshlang'ich ta'limning 1-sinfda davom ettiriladi. Bunga yuqorida ko'rsatilganidek, ona tili va o'qish savodxonligi, matematika, tabiiy fanlar, texnologiya, musiqa, jismoniy tarbiya darslari yordam beradi. Kasb tanlash bo'yicha o'quv materiallarining boyligi, bu ishni boshlang'ich ta'lim davrida keng ko'lamda amalga oshirishga imkon beradi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida:

-kasbiy faoliyatning turli ko'rinishlarida qo'llaniladigan instrumentlar bilan tanishtirish;

-o'quvchilar so'z boyligini kengaytirish, keng doiradagi kasblarni o'rganish;

-sanoat va qishloq xo'jaligida ishlatiladigan texnikalar bilan tanishtirish.

Tabiiy fanlar darslarida:

-iqtisodiy tarmoqlar bilan tanishish, ayrim ishlab chiqarish jarayonlari va ular bilan bog'liq kasblar haqida dastlabki tasavvurlar;

-transport turlari va ularni hozirgi sharoitda ishlatilishini o'rganish;

-tumanimiz, shahrimiz, viloyatimizga kerak bo'lgan kasblarni o'rganish;

Tasviriy san'at va texnologiya darslarida:

-o'quvchilarda mehnatga mehr va vijdonan munosabatni tarbiyalash va uning inson hayotidagi rolini tushuntirish;

-ota-onalar kasbiga qiziqishini rivojlantirish;

-badiiy-estetik turkum kasblari bilan tanishish;

O'quv-tarbiya jarayonida kasb tanlash bo'yicha o'yin texnologiyalarini joriy qilish natijasida "Shahrimiz, tumanimiz uchun zarur bo'lgan kasblar", "Kim bo'lmoq kerak?", "Ota-onamiz kasblari" mavzulari bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muntazam ravishda tadbir-viktorinalar o'tkazish, agitbrigadalarga chiqishlar, "Kasb tanlash", "Kasblar olami"ga sayohat, sinf soatlari hamda "Kasblar olami" bo'yicha kichik muzey yaratish joiz.

Kasb tanlash bo'yicha o'yin texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarda qo'yidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon beradi:

-qiziquvchanlik;

-mustaqillik;

-o'z-o'zini tahlil qilish malakasi;

- turli axborot manbalari bilan ishlash;
- tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmasi;
- muloqot dialektikasini o'zlashtirish;
- o'yin jarayonida o'z-o'zini tushunish;
- ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni anglash;
- insonning jamiyatdagi xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish.

O'yin texnologiyasining algoritmi ishlab chiqilgan.

1-bosqich. Afzal ko'rgan kasblar va kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga kasblar haqidagi bilimlari darajasini tashxis qilish. Tashxis turli shakllarda, ya'ni anketa, test, suhbat orqali o'tkaziladi.

U kasblar haqidagi bilimlar darajasini namoyon qilish, o'quvchilarni yaxshi ko'rgan kasblarini va kasb tanlash sabablarini, mazkur kasblar uchun salomatlikni o'ziga xos xususiyatlari va tuzatishlar kiritish maqsadida o'tkaziladi.

2-bosqich. O'yin texnologiyalarini o'tkazish maqsad va vazifalarini aniqlash. O'qituvchi u yoki bu o'yin nimaga xizmat qilishini aniq tasavvur qilishi, qanday natijalarga erishishni bilishi kerak.

3-bosqich. O'yin texnologiyasi qo'llaniladigan predmet yoki tadbirlarni tanlash. O'yin texnologiyasi maqsad va vazifalariga mos ravishda o'qituvchi o'quv predmetni yoki tarbiyaviy tadbirlarni tanlaydi. Bunda qo'llanilgan o'yin texnologiyasi eng yaxshi natijaga erishishga yordam berishi kerak.

4-bosqich. Didaktik material, ko'rgazmali jihozlarni tanlash. Bunda o'qituvchi "Kasblar olamida" jadvalidan "Kasblar", "Instrumentlar", "Materiallar" "Rolli o'yinlar uchun kostyumlar va aksessuarlar" rolli o'yinlar, kasblar haqida taqdimot, elektron krossvordlar, flash-o'yinlar, video-roliklar, musiqiy kliplar, o'quv filmlari va boshqalar uchun ko'rgazmali materiallardan foydalanish mumkin.

5-bosqich. Tanlangan texnologiyani qo'llash. O'yin texnologiyalarini o'quv-tarbiya jarayoniga qo'llash jarayonida uning

rivojlantiruvchi funksiyalari-kommunikativ, o'yin terapiya, ijtimoiylashtirish, tuzatish va b.h. funksiyalarni albatta yodda saqlash zarur.

6-bosqich. O'yinni qo'llash natijalari. Ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish. O'qituvchi o'tkazilgan o'yin natijalarini albatta tahlil qilishi (nimaga erishilda va nimaga erishilmadi, o'yin jarayonida har bir o'quvchini ishtiroki darajasi, ushbu o'yin o'quvchilarni qiziqтира olishi yoki o'yin mazmuniga va tuzilmasiga nimanidir kiritishga zarurat bormi).

7-bosqich. Mazkur texnologiyani samaradorligini namoyon qilish maqsadida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasblar to'g'risidagi bilimlar darajasini aniqlash uchun qayta tashxis o'tkazish. Qayta tashxis o'qituvchi tomonidan an'anaviy anketa, test, suhbat hamda o'yin shakllarida -"Bilimlar ko'rigi", "Viktorina", "Tadqiqot faoliyati", shaxsiy va jamoaviy loyihalar yaratish kabi shakllarda o'tkaziladi.

Kasbga yo'llash bo'yicha o'yin texnologiyalari boshlang'ich ta'lim o'quv predmetlari tuzilmasiga oson qo'shiladi va uni hissiy boyitib xilma-xil qiladi.

4-sinf nutq o'stirish darslarida o'quvchilarga "Yosh jurnalist" insho-o'yini taqdim qilish joiz. U inshoga material yig'ish uchun jurnalist rolida savollar tayyorlaydi, kimningdir ota-onasidan, yosh patrullardan, qo'shnilardan o'z ish joyida nima ishlar bilan shug'ullanadi, qanday sharoitda ishlaydi, nima ishlab chiqaradi, o'z kasbini qanday egallaganligi to'g'risida intervyu oladi.

Rolli o'yinlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasblar olamiga yo'naltirish bo'yicha sezilarli potensial imkoniyatiga ega "Magazin" (matematika darslarida), "Kutubxona", "Muharrir" (Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida), "Ekskursiya boshlovchisi" (Tabiiy fanlar darslarida), "Bizlar oshpazlarmiz", "Rassom ustaxonasida" (Tasviriy san'at va texnologiya darslarida) va b.q. o'quvchilar kattalarning mehnat faoliyatlarini tahlil qiladilar.

O‘z-o‘zidan ravshanki, mazkur darslarda darslarning didaktik vazifalari kasb tanlash bilan integrasiyalanadi. Masalan, “Magazin” o‘yinida o‘quvchilarga kassir, turli bo‘limlar sotuvchilari, boshqaruvchi (menedjer) roli beriladi, ammo ushbu o‘yinga og‘zaki hisoblash malakasini mustahkamlash bilan bog‘liq didaktik hamda tarbiyaviy madaniyatni shakllantirishda vazifalari o‘z yechimini topadi.

Dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda amalga oshiriladigan kasb tanlash o‘yinlariga “Kasbni top” nomi bilan birlashgan bir qator o‘yinlar kiradi. Jumladan, “...harfi bilan ataladigan kasb”, “Ishda kim qo‘llaydi? (berilgan instrument yoki materialni qaysi kasb ishlatishini ayting)”, “Assosiatsiya (assotsiativ savollar kasbga qanday hid, rang yordamida o‘ylagan kasbni topish, ishi odamlar bilan muloqot qilish bilan bog‘liqligi)”. “Oh baxtli odam” kasb tanlash o‘yini kasblarning mazmuni, mehnat sharoiti va qurollarida hamda kasbiy sifatlarni o‘z ichiga oladi.

Eski qadimiy “Sudxo‘r” kasbiga qaysi zamonaviy kasb egasi mos keladi?

-politsiyachi

-bankchi

-tarbiyachi.

Daraxtni mevasi bilan, odamni esaqadrlaydi.

-puli bo‘yicha

-mehnati bo‘yicha

-ko‘zi bo‘yicha.

Buxgalter (hisobchi)ga qanday muhim kasbiy sifatlari zarur?

-musiqiy qobiliyati

-barmoqlarining epchilligi

-tartibga rioya qilib ish tutish.

“Ustalar shahri bo‘ylab sayohat” kasb tanlash o‘yini jarayonida mehnat va kasblar olami bilan tanishtirish sayohat tarzida o‘tkaziladi. Musobaqa elementlari kiritilgan jamoa shaklidagi mashg‘ulotni o‘rgatish samarasi kuchayadi. O‘yin mashqlari nafaqat

bilimlarni o'zlashtirishga, balki mustaqillik, xulq-atforni erkinligiga, o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tahlil qilish elementlari, o'quv-biluv jarayonini (xotira, diqqat, ong) rivojlantirishga yordam beradi. Mazkur o'yinni tashkil qilishni turli shakllari bo'lishi mumkin. Kuni uzaytirilgan guruh mashg'ulotlarida ayrim o'quv predmetlarni o'rganish, bayram ertaliklari va konsertlar o'tkazishda kasbga yo'naltirilgan qiziqarli shakli sifatida kichik muzeyni olish mumkin. "Kasblar olamida" kichik (mini muzey) bolalar qo'li bilan yaratilgan. O'quvchilar orasidan ekskursavodlar saylanib, ular o'quvchilar uchun katta bo'lmagan ekskursiyalarni olib boradilar, turli kasblarning o'ziga xos jihatlarini hikoya qilib beradilar.

O'yin texnologiyalari nafaqat darslarda, balki darsdan tashqari mashg'ulotlarda, sinf soatlarida, ekskursiya, turli tadbirlarida ham o'tkazilishi mumkin.

4-§.Boshlang'ich maktabda kasb tanlash bo'yicha sinf soatlari mavzulari (I-IV sinflar)

Sentabr-Oktabr

“Yerda qancha ish?”

Noyabr-Dekabr

“Odamlar kiyimlarining o'ziga xosligi”

Yanvar-Fevral

“Qurolsiz qo'lsizday”, “O'z ishining ustasi bo'lish mumkinmi?”

Mart-Aprel

“Mashinalar nima uchun kerak?” “Barcha ishlar yaxshi-didinga mos kelganini tanla”

Sentabr-Oktabr

“Mehnat bilan uchrashuv”, “Ijodiy kasblar”

Noyabr-Dekabr

“Olim bo'lish osonmi?”, “Salomatlik va kasb”

Yanvar-Fevral

“Talant va kasb”, “Kasblar”, “Kasblarni tez-tez o'rganish”

Mart-Aprel

“Ta'lim va kasb”, “Mehnat azob emas, balki quvonch”

Sentabr-Oktabr

“Kasblar tarixi”

Noyabr-Dekabr

“Ota-onalarimiz kasblari”, “Oilaviy kasblar sulolasi”

Yanvar-Fevral

“Kasb tanlash osonmi?” “Ish ustadan qo'rqadi”

Mart-Aprel

“O'z ishingni top”, “Ajoyib kasblarning sanog'i yo'q”

5-§. Ikkinchi sinfda “O‘quvchilarni mehnat bilan uchrashuvi” sinf soati stsenariysi

Maqsad: O‘quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirishni davom ettirish; ishchi kasb egalariga zarur bo‘lgan instrumentlar to‘grisida o‘quvchilarda tasavvur hosil qilish; mehnatga mehr o‘yg‘otish.

Jihozlar: qaxramonlar kostyumlari, suxandonlar uchun kostyumlar, instrumentlar va ishchi buyum, ashyolar (mehnat rovida bola ishchi kombinzonida kirib keladi).

Mehnat: Assalomu alaykum, do‘stlar! Men haqimda, mensiz suv hovizdan baliqni chiqaralmaysiz deb gapiradilar. Tanishishga ruxsat bering!

O‘qituvchi: Kechirasiz hurmatli! Sizni kimligingizni bolalar, balki o‘zlari tanigandirlar.

Barcha: Mehnat!

Mehnat: Sizlarga tashakkur, sizlar meni tanidingizlar. Men haqimda ehtimol maqollar ham bilasizlar?

(baland yig‘i eshitiladi)

O‘qituvchi: Nima bu shovqun? Nimaga baqiriyapti? U yoqda mollar to‘dasimi?

(bola kiradi, u baland ovoz bilan yig‘laydi). Bola sen nima uchun yig‘layapsan?

Bilmasvoy: Men bola emasman, men bilmasvoyman. Menga juda yomon, men hech narsa qila olmayman, kasblar haqida hech narsa bilmayman. Balkim siz menga yordam berarsiz? Qanday kasblar bor?

Bolalarni chiqishlari:

Bo‘yoqchi:

Men bo‘yoqchiman, sizga qadam tashlayapman

Chutka va chelak bilan

Yangi chiqqan bo‘yoq o‘zim bo‘laman.

Yangi uyni bo‘yayman

Devorlarni, eshiklarni bo‘yayman.

Meni cho'tkam
Menda burun ham o'ynaydi...
Oq bo'lib qoldi, do'stlar!

Pochtachi:

Pochta-xatlari va jurnallarni
Tarqataman uylarga
Barcha kvartiralarga boradiyu
Har bir uyga kiradi.
U soat yettida boshladi ishni
Soat o'nda so'mkasi ozib qoldi
Soat o'n ikkida esa
Hammasini adreslar bo'yicha tarqatdi u.

Avtomobil yo'l patrul xodimi

Dunyoda hech kim qilolmaydi
Bir qo'lini harakatga keltirib
Yo'lovchilar oqimini to'xtadi u
Va avtomobillarni o'tkazib yuboradi.

Oshpaz

Aytchi kim karamdan
Mazzali osh tayyorlaydi
Ajoyib kotletlar
Salatlar, vinegretlar
Hammasi nonushtaga, tushlikga

O'qituvchi: Barcha kasblar kerak, barcha kasblar muhim

Bilmasvoy: Ha? Masalan, uy qurulishi to'g'risida qanday qiziqarli ma'lumotlarni bilish mumkin? Mayli, qurilish bo'lsa qurulishda.

G'isht teruvchi:

Qurulishda ish qizg'in.
Bugun quruvchi ertalabdan ish boshladi.
G'isht ketidan g'isht qo'ydi.
Etaj ketidan etaj o'sib borayapti.
U har soatda

Har kuni
Yangi oy borgan sari yuqorilab borayapti

Duradgor:

Oq qirindi uchmoqda
Arra tagidan uchmoqda
Duradgor rom, eshik yasayapti.

Bolta, tesha bilan

Taxtani yunib

Deraza tokcha yasadi

Ko'zsiz taxtadan

Elektrik:

Siz o'zingizga tasavvur qiling-chi

Toksiz biz qanday yashardik!

Baland uyda liftni hechkim chaqirmasdi

Qilgan bo'lardim qorong'uda men burnimni pachoq

Televizor ham qo'shilmagan bo'lardi

Sovutgich ham, pulesos ham

O'qituvchi: Bolalar qaysi kasblar haqida gapirib berishni yoddan chiqardilaringiz? Ushbu kasb vakillari qurulish boshlanmasdan ancha oldin o'z ishini boshlaydi. Bu qanday kasb ekanligini toping? (Ma'lumot: Arxitektor).

Mehnat: men sizlarga oilangiz uchun uyni loyihalashni taklif qilaman. Bilmasvoy, sen arxitektor bo'lishni sinab ko'rchi.

"Bizlar-arxetektorlarmiz" o'yini.

Bolalar albom varaqlariga o'z uylarini rasmlarini chizadilar, ishni tugatgandan keyin nimani ifodalaganligini aytib beradi.

Mehnat: Sizlar bilan xayrlashish payti keldi. Meni unutmanglar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014. -76 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. -T.: O'zbekiston, 2020-yil, 23-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida” 2019-yil 13-maydagi 391-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2017-yil 30-sentabrdagi PF–5198-son Farmoni// “Xalq so’zi” gazetasi, 2017 yil. 1-oktabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimi 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” 2019-yil 8-maydagi PQ–4312 –son Qarori// “Xalq so’zi” gazetasi, 2014 yil. 4-may.
6. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari”. -T.: 2018 -b.
7. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o’quv dasturi. T.: 2018 -b.
8. Maktabgacha ta’lim muassasasida bolalarga kasb-hunarlar haqida tushunchalarni shakllantirish. Uslubiy qo’llanma. Tuzuvchilar: Shodiyev N., Doniyev B. – Samarqand:. SamDU, 2014. - 54 b.
9. Muxina M.B. Игрые технологии профрентасије младших шкoлников. – Sochi, 2011 -c.
10. O’quvchilarni kasbga yo’naltirish. Uslubiy qo’llanma. Tuzuvchilar: Shodiyev N., Islomov B. va h.k. – Samarqand:. SamDU, 2015. -138 b.
11. Shodiyev N. Ona tili boshlang’ich ta’limda o’quvchilarni kasblar olami bilan tanishtanishtirish// Uzluksiz ta’lim sifat va

samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolari. – Samarqand: SamDU, 2015. -B.74-78

12. Shodiyev N. Boshlang'ich matematika ta'limida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish imkoniyatlari // SamDU, ilmiy-tadqiqotlar Axborotnomasi, 2017. 2-son, - B.140-144

13. Shodiyev N., Narzieva D. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarni "Kasblar olami" bilan tanishtirish usullari // Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolari Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. - Samarqand: SamDU, 2017. -B.214-216

14. Shodiyev N., Habibova N Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb-hunar haqida tasavvur va tushunchalarni shakllantirish // Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolari. Samarqand: SamDU, 2009. -B.83-86

15. Shodiyev N., Narzieva D. Bog'chaga tayyorlov guruhi bolalarni kasblar olami bilan tanishtirish imkoniyatlari. // ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchi mahorati muammo va yechimlari Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Jizzax. 2017. - B.389-397.

16. Shoumarov G'. O'zbekiston Respublikasida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish muammolari va istiqbollari // Maktab va hayot jurnali, 2009. №1. – B.2-4.

17. O'zbekiston Respublikasi Umumta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlari dasturi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligining buyrug'i // Maktab va hayot jurnali, 2007. №3. – B.12-13

Mundarija

Kirish.....	3
1-§. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini kasb-hunarlar («Kasblar alifbosi») bilan tanishtirish	5
2-§. Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarni matematika, tabiatshunoslik, ona tili fanlariga o'rgatish orqali ularni boshlang'ich kasb-hunarlariga yo'naltirish	22
2.1. 3-sinf matematika ta'limida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish imkoniyatlari.	22
2.2. «Tabiatshunoslik» darslarida maktab o'quvchilarini kasblar olami bilan tanishtirish	29
2.3. 4-sinf ona tili ta'limida o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish imkoniyatlari.	44
3-§. Boshlang'ich maktab ta'limida o'quvchilarni kasb-hunarlar bilan tanishtirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish.....	52
4-§. Boshlang'ich maktabda kasb tanlash bo'yicha sinf soatlari mavzulari (I-IV sinflar)	62
5-§. Ikkinchi sinfda “O'quvchilarni mehnat bilan uchrashuvi” sinf soati stsenariysi.....	63
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	66

N.SHODIYEV, M.RAXIMQULOVA, D.ATAMURODOV

UZLUKSIZ KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH

(Uslubiy qo‘llanma)

“QAMAR MEDIA” NASHRIYOTI

Muharrir: Muhammad Sobir
Musahhah: Osima Sobirjon qizi

ISBN 978-9943-8048-3-8

“Qamar media” nashriyoti, Toshkent shahar, Mirobod tumani
Qo‘yliq mavze-4, 3-uy, 26-xonadon. tel.: +99894-672-71-11

Terishga berildi: 02.06.2022-yil. Bosishga ruxsat etildi: 07.06.2022-yil.
Bichimi 60x84 ^{1/16}, “Cambria” garniturası.
Bosma tabog‘i 4,5. Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 2022/14
Noshirlik litsenziyasi: № 18-4178

Samarqand viloyati xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi

ISBN 978-9943-8048-3-8



9 789943 804838